

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI

O‘ZBEK TILI VA UNI O‘QITISH USLUBIY KAFEDRASI

**“Himoya qilishga ruxsat beraman”
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti dekani
_____ f.f.n. Sh.Haydarov
“ _____ ” _____ 2013 y**

5141100 - o‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini
olish uchun

ABDUG‘ANIYEVA MUNIRA BURXONOVNANING

**TENG VA ERGASHTIRUVCHI BOG‘LOVCHILI QO‘SHMA GAPLARNI
QIYOSLAB O‘RGANISH**
mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: dots. Almatov T.

Taqrizchi: dots. Fayzullayev B

**BMI O‘ZBEK TILI VA UNI O‘QITISH
USLUBIYATI kafedra**si yig‘ilishining qarori bilan
(Qaror № 10 15.05.2013). Himoyaga tavsiya
etilgan.

Kafedra mudiri: _____ p.f.n.Q. Yadgarov
(imzo)

JIZZAX-2013

Teng va ergashtiruvchi bog'lovchili qo'shma gaplarni qiyoslab o'rganish

Reja:

Kirish

I. bob. Sodda va qo'shma gaplar qiyosi orqali qo'shma gaplar haqida tushuncha berish.

- 1.1 Qo'shma gap qismlari va ularni bog'lovchi vositalarini o'tish orqali o'quvchilarga qo'shma gaplar haqida tushuncha berish.
- 1.2 Qo'shma gaplar tasnifi mavzusini o'tish usullari.

II. bob. Teng bog'lovchili qo'shma gaplarni o'tish

- 2.1 Biriktiruv bog'lovchisi yordamida bog'langan qo'shma gaplarni o'tish
- 2.2 Zidlov bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gaplarni o'tish.
- 2.3 Ayiruv bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gaplarni o'tish.
- 2.4 Bo'lsa, esa so'zlari yordamida bog'langan qo'shma gaplarni o'tish

III. bob. Ergashtiruvchi bog'lovchili qo'shma gaplarni o'tish va ularni teng bog'lovchili qo'shma gaplarga qiyoslash.

- 3.1 Bosh va ergash gap mavzusini o'tish.
- 3.2 Ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositalar mavzusini o'tish.
- 3.3 Ergashtiruvchi bog'lovchili ergashgan qo'shma gaplar mavzusini o'tish
- 3.4 Ko'makchili qurilmalar yordamida ergashgan qo'shma gaplar mavzusini o'tish.
- 3.5 Ergashgan qo'shma gaplarning sodda gap bilan ma'nodoshligi mavzusini o'tish.
- 3.6 Kesim ergash gapli qo'shma gaplar mavzusini o'tish.
- 3.7 Ega ergash gapli qo'shma gaplar mavzusini o'tish.

Xulosa

Kirish

Mavzuning dolzarbligi: Mustaqillik sharofati bilan o'zbek diyorida ham yangilanish, rivojlanish davri boshlanib, ijtimoiy hayot umumjahon andozalariga xos taraqqiyot yo'nalishlari jadal sur'atlar bilan kirib bormoqda. Xalq xo'jaligining barcha sohalari, shu jumladan ta'lim sohasida ham ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. Yurtboshimiz I.A.Karimov: "Biron bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib, o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi. Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o'zlikni anglashning o'sishidan xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy tarbiya jarayoni deb hisoblaymiz"¹ degan edi. Ma'naviyatga bo'lgan bunday katta e'tibor uning uzviy bo'lagi bo'lgan tilga e'tibor o'tmish ma'naviyatimizga bo'lgan hurmat va e'tirofdan dalolatdir. Ma'naviy boyligimiz-tilimizni e'zozlash, hurmatlash, avloddan-avlodga yetkazish bevosita nutqiy jarayon bilan bog'liq. Nutq jarayonida qo'shma gaplardan foydalanishning o'ziga xos tomonlari bor. Har qanday ikkita sodda gapni biriktirib qoshma gap hosil qilish mumkin emas. Shunday bo'lar ekan qo'shma gap va uning nutqiy jarayonida qo'llanilishini o'rganish asosiy muammolardan biridir. O'quvchilarda shunday ko'nikmani hosil qilish mavzuning dolzarbligi hisoblanadi.

Mavzu bo'yicha e'lon qilingan ilmiy va ilmiy-metodik ishlar.

Bitiruv malakaviy ishini bajarish jarayonida mavzuga aloqador bo'lgan quyidagi ilmiy metodik va tahliliy manbalar o'rganib chiqildi.

"Hozirgi o'zbek adabiy tili" (Toshkent. 1980) A.G'ulomov, M.Asqarova. Hozirgi o'zbek adabiy tili (Sintaksis) "O'zbek tili grammatikasi" 2-tom (1976) H.Nematov, A.G'ulomov. Ona tili ta'limi mazmuni. (1995) kabi adabiyotlarda mavzuga oid berilgan nazariy ma'lumotlardan foydalanildi.

Shuningdek, Sh.Ilyosovanning "Aniqlovchi va to'ldiruvchi ergash gaplar va ularni o'tish uslubi" 2012. D.Esirgapovanning "Bog'langan qo'shma gaplarning

¹ Karimov I. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolati. Toshkent. O'zbekiston, 1997. B-137.

bog‘lanishi va usullari” 2009 F.Ermatovanning “Hozirgi o‘zbek adabiy tilida ergashgan qo‘shma gaplar va uning sabab va maqsad ergash gaplar orqali ifodalanishi” 2010. Sh.Mamarasulovanning “Ergash gapli qo‘shma gaplarda shakl va mazmun” 2010. N. Qayumovning “O‘zbek tilida bog‘lovchi vositalarsiz birikkan qo‘shma gaplar” kabi bitiruv malakaviy ishlari ham ko‘rib chiqildi va kerakli xulosalar olindi.

Mavzuning maqsadi. Qo‘shma gaplar va ularning turlari hamda qo‘shma gap hosil qiluvchi komponentlarni tahlil qilish va u orqali o‘quvchilar nutqini o‘stirish asosiy maqsad hisoblanadi.

Mavzuning vazifasi. Qo‘shma gaplarni va ularning turlarini o‘tish jarayonida qo‘llanadigan metod va usullarni tavsiya qilish hamda zaruriy grammatik o‘yin topshiriqlarni ishlab chiqish asosiy vazifasi sanaladi. Shuningdek, qo‘shma gap mavzusini o‘quvchilar ongiga yetkazdirish maqsadida o‘quvchilarga qo‘shma gap turlari bo‘yicha gap tuzish hamda badiiy qo‘shma gapning turlariga misol toptirish ham ishning asosiy vazifalaridan sanaladi.

BMI ning amaliy ahamiyati. O‘rta maktab ta‘lim tizimida sitkaksisni o‘qitish o‘ziga yarasha murakkabliklarga ega. Chunki sintaksis nutq bilan, nutqiy jarayon bilan o‘quvchi ongi va tafakkuri bilan bevosita aloqador.Bitiruv malakaviy ishida qo‘shma gaplar qiyoslanib ular o‘ziga xos tomonlari tahlil qilingan, bu o‘z o‘rnida o‘rta maktab o‘qituvchilari uchun amaliy qo‘llanma vazifasini o‘taydi.

Bitiruv malakaviy ishi xulosalaridan o‘rta maktab ona tili adabiyot o‘qituvchilari o‘zbek tili va adabiyot fakultetining bitiruvchilari umuman ona tili o‘qitish metodikasi bilan qiziquvchilar foydalanishi mumkin.

BMI tuzilishi va hajmi. Ish kirish, uch bob, qisqa xulosalar hamda 20 ta adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

I. bob. Sodda va qo'shma gaplar qiyosi orqali qo'shma gaplar haqida tushuncha berish.

Ma'lumki nutq jarayonida xususan, yozma nutqda qo'shma gaplardan keng foydalanamiz. Buni yozma nutq toqozo qiladi. Yozma nutqning og'zaki nutqdan farqli o'rinlaridan biri ham shu xususiyati sanaladi. Qo'shma gaplarni o'quvchilar nutqida o'rinli qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida sodda gaplar bilan qo'shma gaplarni bir-biriga qiyoslagan holda tushuntirish maqsadga muvofiqdir. Shu maqsadda o'rta maktab 9-sinf darsligida berilgan "Sodda va qo'shma gaplar" mavzusini o'tishni yoritamiz. Tilimizda qo'shma gaplar sodda gaplarning o'zaro birikuvidan hosil bo'ladi. Sodda gap bitta kesim atrofida uyushgan so'zlarning nutqiy qurilmasidir. Qo'shma gap esa kamida ikki va undan ortiq sodda gapdan iborat bo'ladi. Qo'shma gaplar o'quvchilar nutqi takomilida rang-barangligi va jozibadorligini oshirishda imkoniyatlari cheksizdir. Buni amalda sinab ko'rish uchun o'quvchilarga "Sodda va qo'shma gaplar mavzusiga doir 1-topshiriq bajartiriladi.

Topshiriq. Sodda va qo'shma gaplarni qiyoslash maqsadida berilgan bo'lib, uni o'quvchilar bilan birgalikda aniqrog'i, o'qituvchi nazoratida o'quvchilar tomonidan bajariladi. Chunki o'quvchilar sodda va qo'shma gaplar yuzasidan elementar ma'lumotga ega. Ular o'zlaridagi mavjud bilimlar asosida topshiriqni bajaradilar.

Topshiriq.

1. Jaloliddin Manguberdi mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashda jasorati tufayli buyuk vatanparvar va milliy qahramon sifatida Sharq-u g'arbda dong taratdi. (B.Ahmedov)
2. Quvonarlisi shundaki, Fitratning kitobi yangi milliy musiqashunosligimizga asos soldi. (R.Inog'omov)

Misollarga nazar solsak, hajm jihatdan birinchi gap ikkinchi gapga qaraganda katta. Ammo anglashilayotgan mazmun va ifodalash vositalariga e'tibor bersak boshqacha holatni ko'ramiz. Birinchi gapning mazmun markazi bitta, ya'ni buyuk vatandoshimiz Jaloliddin Manguberding dovrug'i, garchand hajman keng

ifodalansa-da, bir ma'noviy markaz orqali berilmoqda, va unda bitta grammatik kesim ishtirok etmoqda. Ikkinchi gap garchand hajmi jihatdan qisqa bo'lsa-da, ikkita mazmun markazi orqali fikrni ifodalamoqda, ya'ni ikkita grammatik markaz mavjud: ko'rsatish olmoshi va qo'shma fe'l. Demak, birinchisi sodda, ikkinchisi qo'shma gaplardir.

Bu ikki gap qiyoslanganda ular ham mazmun, ham tuzilish jihatdan farqlanadi. Demak, fikrni bayon qilishda ham sodda, ham qo'shma gaplardan foydalanamiz. Bu, albatta, nutqiy jarayon bilan bog'liq. Bu o'rinda o'quvchilar e'tiborini qaratadigan narsa sodda va qo'shma gaplarning shakllanishi ifodalanayotgan, ifodalanmoqchi bo'lgan voqea-hodisaga bog'liq. Yoki, albatta, sodda gap yoki qo'shma bo'ladi degan xulosa chiqmaydi. Demak, nutq jarayoni nimani taqozo qilsa shunday ifodalanadi. O'quvchilarda ana shunday malakani xosil qilish asosiy vazifa sanaladi.

Shunday qilib birinchi gap sodda ikkinchi gap qo'shma ekanligini bilib olganlaridan so'ng darslikda berilgan nazariy ma'lumot tushuntiriladi. Bitta kesimlik belgisiga, mazmuniy va ohang tugalligiga ega bo'lgan gap sodda ikki yoki undan ortiq sodda gapning o'zaro grammatik va mazmuniy munosabatidan tashkil topgan ohang tugalligiga ega bo'lgan butunlik qo'shma gap sanaladi. Gap uchun muhim belgi kesimlikdir. Kesimning nechtaligi gaplarni sodda va qo'shma gaplarga ajratishga asos bo'ladi.

O'quvchilarga nazariy ma'lumot tushuntirilgach ularning mazmuni qay darajada anglaganligini tekshirib ko'rib bilimlarini yanada mustahkamlash maqsadida mashqni bajartiriladi. Matnni o'qing. Avval sodda gaplarni ko'chiring. Ularning o'zaro farqini ayting. Bu mashqni darsda bee'tibor o'tirgan o'quvchilarga o'qitib, mashq topshiriq asosida ularga bajartiriladi.

Sodda gaplar.

1. Odam borki, fikr yuritish qobilyatiga ega.
2. Yuksak, teran va atroflicha fikr yurita oladigan va ijtimoiy faoliyatidan el-yurtiga naf yetadigan siymolarnigina mutafakkir deyish mumkin.

Qo'shma gaplar.

1. Mutafakkir soʻzining oʻzagi ham fikrdir lekin har bir fikr yurita oladigan kishiga nisbatan mutafakkir soʻzini qoʻllab boʻlmaydi.

2. Amir Temur, Husayn Boyqaro va Bobur faoliyatida davlat tafakkuri ustunlik qilgan boʻlsa, Ulugʻbek faoliyatida ilmiy tafakkur yetakchi edi.

(“Vatan tuygʻusi” kitobi)

Shu oʻrinda gaplarning mazmunini ham oʻquvchilardan soʻrab koʻrish kerak boʻladi. Bunda, birinchidan, mashqning taʼlimiy mazmuni yaʼni sodda va qoʻshma gaplar haqida bilim va koʻnikmalari shakllansa, ikkinchidan, mashqning tarbiyaviy ahamiyatiga diqqat qaratiladi, uchunchidan keyingi mashqni bajarishga zamin hozirlanadi.

Yuqoridagi mashqda oʻquvchilarning sodda va qoʻshma gaplarni ajratishdagi bilimlari tekshirilib koʻrilsa quyidagi mashqda esa sodda va qoʻshma gaplarni ajratishdan tashqari matnda qanday gʻoya ilgari surilayotgani aniqlanadi.

Mashq. Oʻzbekiston Prezidenti I.Karimovning “Yuksak maʼnaviyat-yengilmas kuch” asaridan olingan quyidagi parchani oʻqing. Sodda va qoʻshma gaplarni aniqlang. Parchada ifodalangan gʻoya haqida soʻzlang.

Biz darsning samaradorligini oshirish vaqtdan yutish oʻquvchilarning diqqat eʼtiborini tortish, xotiralarini kuchaytirish va izlanishga chorlash maqsadida mashq oʻquvchilarga yanada tushunarli boʻlishi uchun uni ogʻzaki bajarishadi.

Sodda gaplar.

1. Tarix haqiqati shuni koʻrsatadiki, tomirida milliy gʻurur vatan ishqini joʻsh urgan odamgina buyuk ishlarga qodir boʻladi.

2. Biz shunday maʼnaviy muhit yaratishimiz kerakki yurtimizning har bir burchagida barcha shahar va qishloqlarimiz qiyofasida vatandan faxrlanish hissi koʻzimizni qalbimizni yashnatib tursin.

3. Bu haqda gapirar ekanmiz ayni vaqtda muhim bir masalaga alohida eʼtibor qaratishimiz lozim.

4. Tabiiyki, bu holat har birimiz mansub boʻlgan moʻjaz vatanning tugʻilib oʻsgan shahar yoki qishloqning qadri va ahamiyatini aslo kamaytirmaydi.

Qoʻshma gaplar

1. Barchamizga ma'lumki inson o'zligini anglagani nasl-nasabini chuqurroq bilgani sari yuragida vatanga muhabbat tuyg'usi ildiz otib, ulg'aya boradi.
2. Bu ildiz qancha teran bo'lsa, tug'ulib o'sgan yurtga muhabbat ham shu qadar yuksak bo'ladi...
3. Yurtimizda yashayotgan har qaysi inson o'zini eng avvalo, O'zbekiston fuqorosi deb, shundan keyingina muayyan bir hudud vakili, aytaylik, Xorazmlik, Samarqandlik yoki Farg'ona vodiysi farzandi deb his qilishi lozim.
4. Biroq shuni esda tutish, kerakki haddan tashqari bo'rttirib yuborilgan mahalliy vatanparvar millatning xalqning jipslashuviga halaqit beradi.

Mashq og'zaki bajarilgandan so'ng o'quvchilardan parchada qanday g'oya ilgari surilayotgani so'raladi. O'quvchilar esa, parchada vatanga, yurtga bo'lgan muhabbat inson o'zi tug'ilib o'sgan joyining makonning qadriga yetish kerakligi tug'ilib o'sgan yurtdan faxrlanish hissini tuyish kerakligini aytadi. Mashqni tez va to'g'ri bajargan, parchadan qanday g'oya ilgari surilayotganini to'g'ri tushuntirib bergan o'quvchilar rag'batlantirilib baholanadi.

Ma'lumki, milliy istiqlol g'oyasi va sharqona tarbiya berish ona tili darslarida yetakchi omil sanaladi. Shu tamoyildan kelib chiqib, darsliklarda mutafakkirlarning fikrlaridan to'plab namunalar keltirilgan. Ularning fikrlari yozma adabiy tilning yuksak namunasi sifatida baholanadi. O'z-o'zidan bunday fikr-gaplardan grammatik kategoriyalarni, til xodisalarini topish ancha mushkullikni keltirib chiqaradi. Chunki ularning aksariyati nazm ko'rinishidadir. Nazmda aytilgan fikrga yuzaki qarash grammatik g'alizliklarni keltirib chiqarish mumkin.

Ana shunday axloq odob normalari tartib qilingan misol- mashqlarni grammatik taxlil qilish o'quvchilarning sodda va qo'shma gaplar haqidagi bilim hamda malakalarini kengaytiradi.

Keyingi mashq.

Alisher Navoiy qalamiga mansub quyidagi hikmatli so'zlarni sodda va qo'shma gaplarga ajratib ko'chiring.

Tilingni o'z ixtiyoringda asra so'zingni ehtiyot bilan so'zla vaqtida aytiladigan so'zni asrama aytmas so'z tevaragiga yo'lama. Tiling bilan dilingni bir tut. So'zni dilingda pishitmaguncha tilga olma.

Nimaiki ko'nglingda bo'lsa tilga keltirma. Aytar so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt. Dushman oz deb g'ofil bo'lmaslik kerak, chunki ko'p o'tinni ozgina o't kuydiradi. Bu mashqda o'quvchilarni ikki guruhga bo'lib bajartirish mumkin.

Guruhlar nomlanadi:

Birinchi guruh: Binafsha

Ikkinchi guruh: Lola

Binafsha guruhining a'zolariga sodda gaplarni Lola guruhi a'zolariga qo'shma gaplarni topish buyuriladi. O'quvchilarga doskani ikkita teng bo'lakka bo'lib beriladi. O'quvchilar tartib saqlab orfografik xatolarga yo'l qo'ymasligi hamda galma-galdan doskaga va o'z daftarlariga chiroyli yozishi, tez bajarishi e'tiborga olinadi. Birinchi to'g'ri va tez bajargan guruh a'zolari a'lo baho va qizil yulduzchalar bilan tag'dirlanadi. Birinchi belgilangan mashqni bajargan guruh Binafsha

1 Tiling bilan dilingni bir tut.

Lola

1. Tilingni o'z ixtiyoringda asra, so'zingni ehtiyot bilan so'zla.
2. Vaqtida aytiladigan so'zni asrama, aytmas so'z tevaragiga yo'lama.
3. So'zni dilingda pishitguncha, tilga olma.
4. Nimaiki ko'nglingda bo'lsa, tilga keltirma.
5. Aytar so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt.
6. Dushman oz deb g'ofil bo'lmaslik kerak, chunki ko'p o'tni ozgina o't kuydiradi. Demak, bu mashqda bitta sodda gap oltita qo'shma gap bor ekan. Ikkala guruh ham mashqni to'g'ri bajarganligi uchun ularni g'olib deb e'lon qilinib a'lo baholar bilan baholanadi.

Bugungi mavzu o'quvchilarga qay darajada tushunarli bo'lganligini ularga savollar bilan murojat qilish orqali bilib olinadi. Chunki savol berish ham bir san'atligini o'qituvchi ham chuqur anglashi va o'quvchilarga singdirishi kerak.

Jo‘yali savollarda qandaydir tushunib yetilmagan teranlik bo‘lib o‘quvchilarni izlanishga chorlaydi.

Savol.

1. Sodda gap deganda nimani tushunasiz?
2. Qo‘shma gap deb qanday gaplarga aytiladi?
3. Kesimlik belgisi deganda nimani tushunasiz?
4. Sodda va qo‘shma gaplar bir-biridan qanday farqlanadi?

Sodda va qo‘shma gaplar haqidagi bor bilgan ma’lumot ya’ni bilimlariga tayangan holda umumiy ma’lumotlar yodga olinadi. Buning uchun mashq bajartiriladi. Bir fikrni birinchi guruh o‘quvchilari sodda gap orqali ikkinchi guruh o‘quvchilari esa qo‘shma gap orqali ifodalaydi.

O‘quvchilarni 2 guruhga bo‘lib birinchi guruh “A’lochilar” ikkinchi guruhga “Zukkolar” deb nom qo‘yamiz. Qaysi guruh to‘g‘ri gap tuzsa o‘sha guruh g‘olib deb e’lon qilinadi va rag‘batlantiriladi.

Namuna: Men do‘stimning kelganini eshitdim – Men eshitdimki, do‘stim kelibdi.

A’lochilar.

1. Bahor keldi – bahor keldi va gullar ochildi.
2. Odam, odamlarning naqshidir – Odam borki, odamlarning naqshidir.
3. Maqsadimiz doimo tinchlik bo‘lsin – Maqsadimiz shuki, tinchlik doimo bo‘lsin.

Zukkolar.

1. Ilm bir daraxt, Odob uning mevasidir- Ilm bir daraxtki, odob uning mevasidir.
2. Qalbi pok to‘g‘ri va baxtli hayot kechirishga haqli – Kimning qalbi pok bo‘lsa, u to‘g‘ri va baxtli hayot kechirishga haqli.
3. Odamlar do‘stlik tufayli baxtiyordir- Shuni bilki, odamlar do‘stlik tufayli baxtiyordir.

Ikkinchi guruh Zukkolar guruhi mashqni tez va to‘g‘ri bajarganligi uchun o‘qituvchi tomonidan rag‘batlantiriladi.

Uyga vazifa. “Kim bo‘lsam ekan?” mavzusida hikoya yozing. Unda qo‘shma gaplardan foydalaning. Sodda va qo‘shma gaplar o‘rtasidagi farqni izohlang.

Namuna: Men kelajakda o'qituvchi bo'lmoqchiman. Buning uchun juda, ko'p o'qishimiz kerak. O'qituvchilik kasbi ma'suliyatli kasb, shuning uchun men bu kasbni mukammal egallamoqchiman.

1.1 Qo'shma gap qismlari va ularni bog'lovchi vositalarni o'tish orqali o'quvchilarga qo'shma gaplar haqida tushancha berish.

O'quvchilar sodda va qo'shma gaplar haqida bilib olishdi. Navbatdagi mavzuda qo'shma gap qismlari va ularni bog'lovchi vositalar haqida to'xtalib o'tamiz.

Qo'shma gap qismlari va ularni bog'lovchi vositalar haqida ma'lumot berishdan oldin darslikda berilgan topshiriq o'qituvchi nazoratida bevosita o'quvchilar tomonidan bajariladi.

1-topshiriq. Quyidagi berilgan bo'sh o'rinlarga muvofiq keladigan gaplarni qo'yib ko'chiring. Qo'shma gap qismlarining qanday bog'lovchi vositalar yordamida bog'langanini ayting.

Ushbu topshiriqni o'quvchilar o'z ixtiyori bilan doskaga chiqib topshiriq asosida to'g'ri va chiroyli yozishlari talab qilinib galma-galdan bajarib baholanadi. Doskada bajargan topshiriq daftarlariga ham ko'chiriladi.

1. Qo'ng'iroq chalinadi va dars boshlanadi.
2. Yo siz keling, yo men boray.
3. Goh yomg'ir yog'adi, goh quyosh charaqlab chiqadi.
4. Yozi bilan tinimsiz mehnat qildik, shuning uchun mo'l hosil oldik.
5. Gulsum opa hammadan ko'ra bu odamning mana shunday kishi ko'nglini ovlamoqchi bo'lishidan qo'rqadi, chunki buning tagida hamisha bir yomon gap, bir sovuq xabar yotadi.

Birinchi gap teng bog'lovchi yordamida bog'langan.

Ikkinchi gap ham teng bog'lovchi yordamida bog'langan ikkinchi gap teng bog'lovchi yordamida bog'langan.

Uchinchi gap ergashtiruvchi bog'lovchi yordamida bog'langan.

To'rtinchi gap ham ergashtiruvchi bog'lovchi yordamida bog'langan o'quvchilar shu tartibda mashqni bajargandan so'ng eng to'g'ri bajargan beshta o'quvchini rag'batlantiriladi.

2-topshiriq. Bog'lovchilar qo'shma gap qismlarini bog'lash bilan birga yana qanday vazifani bajarishini aniqlang bu topshiriqni o'quvchilar og'zaki bajarishi talab etiladi.

Topshiriqni sinfdagi a'lochi o'quvchilardan so'rasak maqsadga muvofiq bo'ladi chunki topshiriq murakkabroq.

Qo'shma gap komponentlarini biriktiruvchi bog'lovchilar ularni bog'lashdan tashqari komponentlardan anglashilgan sabab va natija kuchaytirish va ta'kidlash harakatning odatdagidan ko'ra sodir bo'lishi zidlik ma'nosini birdan ortiq voqea hodisalar ketma-ket kelishi birdan ortiq voqealardan birininggina sodir bo'lishi kabi ma'no atfenkalarini intanatsion tafovutni ham anglatadi. Demak, bog'langan qo'shma gaplar qismlarini bog'lovchi vositalar bog'lovchilikdan boshqa vazifalarni ham bajaradi.

Yuqoridagi topshiriqni bajarish jarayonida bog'lovchilar ya'ni qanday vazifani bajarishini anglab yetdilar. O'quvchilar bu haqdagi umumiy bilimlardan qoniqish hosil qilgach darslikda berilgan nazariy ma'lumotni tushuntiramiz.

Qo'shma gapni tashkil etgan sodda gaplar qo'shma gap qismlari sanaladi. Bu qismlarni bog'lash uchun xizmat qiladigan vositalar esa bog'lovchi vositalar hisoblanadi. Qo'shma gap qismlari quyidagi bo'lovchi vositalar yordamida bog'lanadi.

1. Bog'lovchilar: a) teng bog'lovchilar (va hamda ammo, lekin, biroq, yo...yo dam...dam) b) ergashtiruvchi bo'lovchilar.

2. Bog'lovchi vazifasidagi vositalar.

Intonatsion tafovutni ham anglatadi. Demak, bog'langan qo'shma gaplar qismlarini bog'lovchi vositalar bog'lovchilardan boshqa vositalarni ham bajaradi.

a) bo'lsa esa deb: b)-u (-yu) –da -ki yuklamalari: d) nisbiy so'zlar: e) shuning uchun, shu tufayli shu sababli singari ko'makchili qurilmalar: b) shart mayli qo'shimchasi (-sa)

3 Ohang.

O'quvchilarga nazariy ma'lumot tushintirilgach ularning qay darajada anglaganligini tekshirib ko'rib bilimlarini mustahkamlash maqsadida mashq bajartiriladi.

Ko'chiring. Qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vositalarini aniqlang. Mashq qo'shimcha topshiriq bilan bajartirilishi mumkin, ya'ni o'quvchilar qo'shma gap komponentlarini (qismlarini) alohida-alohida o'qib, har qaysi sodda gapdan anglashilgan fikrni izohlashadi. Ular bog'lovchi yordamida birikkandan keyin qanday ma'noga ega bo'lishini aytishadi.

Bu mashqni bajarishda darsda qatnashmagan o'quvchilar faol qatnashadi. Gaplarni galma-gal, o'qishib doskaga va o'z daftarlariga yozib borishadi.

1. Do'slikdan o'tadigan hech narsa yo'q. Shuning uchun do'st orttirish imkoniyatini sira qo'ldan boy berma.

(„Hikmatnoma” dan)

2. O'zingga do'st tanla chunki bir o'zing baxtli bo'la olmaysan.

(Pifagor)

3. Shuni bilki odamlar do'stlik tufayli baxtiyordir („Qobusnoma”).

4. Yaxshi fikr tiniq uslubni talab qiladi, uslub esa fikr libosidir („Tafakkur gulshani”).

Mashq qo'shimcha topshiriq bilan bajartilishi mumkin, ya'ni o'quvchilar qo'shma gap komponentlarini (qismlarini) alohida-alohida o'qib har qaysi sodda gapdan anglashilgan fikrni izohlashadi.

Ular bog'lovchi yordamida birikkandan keyin qanday ma'noga ega bo'lishini aytishadi.

5. O'z tilingni hurmat qil, u senga keng imkoniyatlar ochib beradi.

Qo'shma gaplar qismlari ergashtiruvchi bog'lovchilar hamda ohang (intonatsiya) yordamida birikmoqda.

Mashq o'quvchilar tomonidan bajarilgandan keyin o'qituvchi tomonidan qo'shimcha savol qilib qo'shma gap qismlari so'raladi. Shu tariqa mavzu

mustahkamlanadi. O'quvchilar bilmaganiga albatta o'qtuvchi tomonidan yordam beriladi.

Shuni ham aytish kerakki ona tili darslarida har bir bajarilgan mashqdan keyin, ya'ni grammatik hodisa tahlil qilingach, albatta, gapning mazmuni o'quvchilardan so'ralmog'i lozim. Bunday usul, birinchidan, darsning ta'limiy tomonini ikkinchidan tarbiyaviy tomonini taminlaydi.

Bu mashqning tarbiyaviy jihati beqiyosdir, chunki unda kishi hayotidagi eng qimmatli qadriyat-do'stlik haqida, unda ham qimmat bo'lgan tafakkur va til haqida fikr bayon qilinmoqda. O'quvchilarning qo'shma gap haqidagi bilimlarini yanada mustahkamlash nutqini o'stirish maqsadida dasrlikda berilgan mashq bajarib tahlil qilinadi.

Ammo, lekin, biroq bog'lovchilari ishtirokida qo'shma gap hosil qiling.

Qo'shma gapni qismlarga ajrating.

Bu mashqni bajarishda tarqatma materiallardan foydalaniladi. Kartochkalarda bajarilishi kerak bo'lgan gaplar aks etgan. Avvalo o'quvchilar uch guruhga bo'linadi. Guruh a'zolari doimgidek o'yin shartlari bilan tanishtiriladi.

Buning uchun o'quvchilarimiz qisqa vaqt ichida topshiriqlarni to'g'ri tinchlik saqlab, guruh a'zolari bir yoqadan bosh chiqarib bajarilishlari talab etiladi. So'ngra har bir guruh a'zolariga to'pshirilgan so'zni o'qib, qo'shma gap hosil qilish tushintiriladi, izohlanadi.

Birinchi guruh **ammo** so'ziga.

Kechasi qor yog'diyu, ammo havo unchalik sovumadi.

Ikkinchi guruh **lekin** so'ziga.

Yurtumizning bu kuni chiroyli lekin ertasi, indini, yani chiroyliroq baxtliroq bo'ladi.

Uchunchi guruh **biroq** so'ziga.

Dilimizda orzu balandroq edi, biroq, ular amalga oshmadi.

Guruhlar ichida ikkinchi guruh to'g'ri va tez bajarishgan. Qolgan guruhlar ham topshiriqni to'g'ri bajargan.

Ikkala mashq bajarilgandan keyin ananaviy tarzda qo‘shma gap qismlari haqida savollar beriladi.

Savollar:

1. Qo‘shma gap qismlari deganda nimani tushinasiz?
2. Qo‘shma gap qismlari qanday bog‘lovchi vositalari yordamida bog‘lanadi?
3. Bog‘lovchi vositalarining har bir turiga misol keltiring.

Bu savollarga o‘quvchilardan individual so‘rash orqali yoki guruhlariga ajratish orqali javob olish mumkin. Bu usul orqali ham o‘quvchilarning nazariy bilimlari tekshirib ko‘riladi ham og‘zaki nutqi takomillashadi.

Mavzu savollar asosida mustahkamlangandan so‘ng o‘quvchilarga yana darslikdagi mashqlar bajartiriladi .

Mashq sodda gaplarning orasiga bog‘lovchi vositalaridan mosini qo‘yib ularni qo‘shma gaplarga aylantiring. Dastlab orqa partada o‘tirgan o‘quvchilar bitta-bitta gaplarni ifodali o‘qib berishdi. Mashq yana guruh bo‘lib bajariladi. Uchta qatorda joylashgan partalarga qarab o‘quvchilar 3ta guruhga bo‘linadi. “Hamma bir kishi uchun, bir kishi hamma uchun” tamoyiliga amal qilib, bajariladi topshiriq asosida jamoada hamjihatlik, o‘quvchilarda inoqlik belgilarini tortinmasdan aytish ko‘nikmasi shakllanib boradi. Bexato va to‘g‘ri, tez bajargan guruh a‘zosi taqdirlanadi.

1. Ta’lim faqat so‘z va o‘zgartirish bilan bo‘ladi. Tarbiya bo‘lsa amaliy ish tajriba bilan amalga oshiriladi. (Farobiy)
2. Olimlar bilan o‘tirsang foyda olasan, lekin gul yonida o‘tirsang uning hidi dumoqqa urib qoladi. (“Hikmatnoma”)dan.
3. Kitob insondan hech narsa tilamaydi. U odob axloqni koni va bilimning bulog‘idir. (“Otalar so‘zi”)
4. Kitob bir bog‘. Yozular esa uning gullaridir. (Qayum Nosriy)
5. Ilim - bir daraxt bo‘lsa, odob uning mevasidir. (Maqol)

Uyga vazifa.

O'qiyotgan badiiy asaringizdan bir sahifasida uchragan qo'shma gaplarni ko'chiring. Qo'shma gap qismlari qanday bog'lovchi vositalar bilan bog'langanini aniqlang.

Namuna:

1. Oyim bilan Omon yarq etib goh menga, goh dadamga qarab qolishdi.
2. Qo'zivoi goh Sherzodga, goh menga qarab biqillardi.
3. Qo'lingdan kelsa ana Muzaffarga sekundantlik qil.
4. Endi u avvalgidek chinqirib yig'lamas ovozi susayib qolgan, ko'zida yig'i o'rniga ingrashga o'xshash ojiz sado chiqar edi.

“Ikki eshik orasi” (O'. Hoshimov)

Uyga berilgan topshiriqni bajarish jarayonida o'quvchilarning qo'shma gaplar haqida bilimi boyishi bilan birga ularning ham og'zaki, ham yozma nutqning rivojiga katta hissa qo'shiladi.

1.2 Qo'shma gaplar tasnifi mavzusini o'tish usullari.

Ma'lumki qo'shma gaplar tushunchasi keng qamrovli ma'noni anglatib, bu atama zahirida bir-biridan shakliy jihatdan farq qiladigan til birliklari mavjud. Ularni ham alohida-alohida tahlil qilish kerak bo'ladi. Qo'shma gaplar tasnifini o'tishda avvalo bu mavzuga oid topshiriqlar bajariladi.

1- topshiriq. Teng bog'lovchilar haqida gapiring va ular ishtirokida ikkita qo'shma gap tuzing.

Ushbu topshiriqni bajarishda o'quvchilar jamoa yoki guruhlarga bo'lmasdan ularni alohida individual ishlashga jalb etamiz. Buning uchun har bir o'quvchi topshiriq asosida teng bog'lovchilar haqida ma'lumot berishadi, so'ng ular ishtirokida ikkita qo'shma gap tuzishadi.

Qo'shma gap qismlari quyidagi bog'lovchi vositalar yordamida bog'lanadi.

1. Bog'lovchilar. 2. Bog'lovchi vazifasidagi vositalar. 3. Ohang.

Shulardan bog'lovchilar ikkiga bo'linadi. A) Teng bog'lovchilar. B) Ergashtiruvchi bog'lovchilar.

Teng bog'lovchilar va, hamda, ammo, lekin, biroq, yo, yo... yo, dam..., dam... bog'lovchilari orqali bog'lanadi.

1. Pastak eshik ochiladi va yelkasiga so'mka osgan pochta xotin engashib ichkariga kiradi.

2. Elmurod avvalgidan ko'ra ancha yengillashgan-u ammo boshi hamon og'riydi.

2-Topshiriq. Chunki, shuning, uchun bog'lovchi vositalari ishtirokida bittadan qo'shma gap tuzing.

Ushbu topshiriqni bajarishdan oldin doskaga topshiriq yoziladi. Shundan so'ng eng birinchi bajargan beshta o'quvchi taqdirlanadi. Topshiriq bajarish jarayonida o'quvchilar nutqiy salohiyati yanada oshishi bilan birga bog'lovchi vositalarni yana bir bor xotirlashadi.

1. Haqiqiy olim o'zining ilmi bilan maqtanmaydi. Chunki u o'zidan ham zo'r olim va fozil borligini biladi.

2. Salim darsga tayyorlanmay keldi. Shuning uchun ustoziga unga ikki baho qo'ydi.

Topshiriqni bajarish jarayonida qo'shma gaplar haqida o'quvchilar deyarli ma'lumotga ega bo'ladilar. Ularning egallagan bilimlarini mustahkamlash maqsadida darslikdan nazariy ma'lumot tushuntiriladi.

Qismlarining qanday bog'lovchi vositalar yordamida bog'lanishiga ko'ra qo'shma gaplar uch guruhga bo'linadi.

1. Bog'langan qo'shma gaplar.

2. Ergashgan qo'shma gaplar.

3. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar.

Nazariy ma'lumotni tushuntirgach o'quvchilar qay darajada bilim ko'nikma malaka hosil qilganligini tekshirib ko'rib bilimlarini yanada mustahkamlash maqsadida mashq bajartiriladi.

Gaplarni o'qing. Qo'shma gaplarni topib ko'chiring. Ularni guruhlarga ajrating.

Gaplarni nima asosida guruhlarga ajratganingizni ayting.

Ushbu mashqni bajarishda o'quvchilarimizdan e'tibor, chaqqonlik, zukkolik talab etiladi.

Mashqni bajarishda biz daftar va doskadan unumli foydalanamiz. Gaplarni topshiriq asosida eng birinchi chiroyli va xatosiz bajargan o'quvchilar rag'batlanadi. Doskaga galma-galdan chiqib gaplar ko'chiriladi.

1. Baraka top, jiyan. Sen borsan ko'nglim to'q. Shu mashina haydashni o'rganib olsang, juda soz bo'lardi. Qatorda noring bo'lsa yuking yerda qolmaydi deydilar. (Hakim Na'zir)

2. Goh kechalari shamol bo'riday uvullab chiqadi, goh sharroz yomg'ir quyib qolardi. (E. Usmonov)

3. Guli yo'q bo'standan yaproq yaxshi, foydasi yo'q yo'ldoshdan tayoq yaxshi. (Maqol)

4. Dunyo ko'rgan odam bilan hamsuhbat qursang baxri diling ochiladi. (O'. Hoshimov)

5. Yurakda orzum qat-qat, ko'nglim etadi parvoz. (R. Tolipov)

6. Quyoshli tog'da qushlarning hush navosi boshlandi. (Sh. Xolmirzayev)

Endi mashqni bajarishda faol darajada qatnashgan o'quvchilarimizga ziyakliklari uchun rahmat aytib a'lo baxolar bilan taqdirlaymiz.

Yuqoridagi mashq bajarilgandan so'ng bilimlarni yanada mustahkamlash maqsadida mashq bajariladi. Gaplarni o'qing, bog'langan qo'shma gap, ergashgan qo'shma gap bog'lovchisiz qo'shma gap tarzida uch guruhga bo'lib ko'chiring.

Ushbu mashqni bajarishda 6x6x6 metodidan foydalaniladi. Bu guruhning har bir a'zosini faollik o'z fikrini ifoda etish guruhdoshlarining fikrini tinglash va tanlay olish, o'rtaga tashlangan bir necha fikrni umumlashtira olish, shuningdek, o'z fikrini himoya qilishga o'rgatadi. Ushbu metodda yetti, sakkiz, o'quvchidan iborat bo'lishi mumkin. Sakkiztadan qo'yilgan stulga o'quvchilar joylashib o'tirishadi. Mashqdagi gaplar o'qiladi. Guruh sardori gaplarni bog'langan, ergashgan, bog'lovchisiz qo'shma gaplarga bo'lib guruh bilan kelishgan holda daftarlariga yozib javobini eshittiradi. Birinchi va to'g'ri, chiroyli yozib bo'lgan guruh har bir a'zosi rag'batlantirilib, boholanadi.

1. Shogirdlar qancha ko'p bo'lsa ko'ngil qafasi shuncha ravshanroq bo'ladi. (G'.G'ulom).

2. Og‘ziga kelganini demoq nodon ishi va oldiga kelganini yemoq hayvon ishi.
(Navoiy).
3. Oqil gar so‘z bila so‘zni yopar, Orif o‘shal so‘zda o‘zini topar.
(H.Xorazmiy).
4. Hunar o‘rgan, chunki hunarda ko‘p sir, yopiq eshiklarini ochar birma bir.
(Nizomiy).
5. Jahonda hammadan to‘g‘rilik a‘lo, Egrilikdan ortiq yo‘qdir hech balo.
(Firdavsiy).

Bizga ma’lumki ona tili darslarida har bir bajarilgan mashqdan keyin, ya’ni grammatik hodisa tahlil qilingach, albatta gapning mazmuni o‘quvchidan so‘rilmog‘i lozim. Bunday usul birinchidan, darsning ta’limiy tomonini ikkinchidan, tarbiyaviy tomonini ta’minlaydi. Bu mashqning tarbiyaviy jihati beqiyos, chunki bunda ajdodlarimiz bizga qoldirib ketgan eng ezgu hikmatlar aks etgan. Bobokalonlarimiz tomonidan bunday hikmatlarning darslikda berilishi uning saviyasini yana ham oshiradi.

II. bob. Teng bog'lovchili qo'shma gaplarni o'tish

Teng munosabatdagi sodda gaplarning o'zaro teng bog'lovchilar yoki shu bog'lovchilar vazifasidagi vositalar yordamida bog'lanishidan tuzilgan qo'shma gap bog'langan qo'shma gap deyiladi.

Bu dars 5 va 7 sinfda „Bog'lovchilar“ mavzusi yuzasidan egallangan bilim, malaka va ko'nikmalarni xotirada tiklash bilan boshlanadi.

O'quvchilarga qo'shma gaplarni biriktiruvchi vositalar yozilgan ko'rgazmali vosita yoki doskadagi yo yoki, agar, va, chunki, shuning uchun, hamda, lekin, ammo na....na, dam..dam, goh...goh, yo...yo yohud, natijada singari bog'lovchilar orasidan teng bog'lovchilar, ayiruv bog'lovchilari, zidlov, bog'lovchilari kabi turlarga ajrating degan topshiriq beriladi.

Demak,

1. Biriktiruv bog'lovchilar: va, ham, hamda.
2. Zidlov bog'lovchilar: ammo, lekin, biroq.
3. Ayiruv bog'lovchilar: na...na, yo...yo, dam...dam, goh...goh.

O'quvchilar yuqoridagi tartibda topshiriqni bajarishganidan so'ng. Topshiriq to'g'ri yoki noto'g'ri bajarilganiga qarab baholanadi. Shundan so'ng o'quvchilar 2-topshiriqni bajarishadi. Gap qismlarini bog'lovchi vositalarni aniqlang.

1. Shu onda chiroq o'chdi va birdaniga o'q uzildi. (A. Qohhor)
2. Mana sen ketding-u, bo'ldim hayolkash.(Zulfiya)
3. Yo'lovchining o'zi ichkariga kirdi-yu, ikki ko'zi tashqarida qoldi.

(Omon Muxtor)

Ushbu topshiriqni bajarishdan oldin doskada topshiriq yoziladi. Shundan so'ng eng birinchi bajargan to'rtta o'quvchi rag'batlantiriladi. Topshiriqni bajarish jarayonida o'quvchilarning nutqiy salohiyati yanada oshishi bilan birga gap qismlari qanday bog'lovchi vositalar yordamida bog'lanayotganini ham bilib olishadi.

Birinchi gap biriktiruv munosabatida bog'langan.


Ikkinchi gap -u yuklamasi orqali bog'langan.

Uchunchi gap ham –yu yuklamasi orqali bog‘langan.

Birinchi gap biriktiruv bog‘lovchisi yordamida bog‘lansa, ikkichi va uchunchi gaplar -u, -yu yuklamalari yordamida birlashmoqda. Nima uchun bog‘lovchi vositalar boshqacha biriktiruvchi emas. Uning sabablarini aniqlashga harakat qilish zarur. Bu gaplarni biriktiruv bog‘lovchisi **va** yordamida bog‘lash mumkin, lekin anglashilayotgan ma’no kuchi yo‘qoladi. Masalan, Shu onda chiroq o‘chdi va birdaniga o‘q uzildi. Gapidan anglashilayotgan mazmun ketma-ket bo‘lgan voqea xabarini bermoqda keyingi gapda –“Mana sen ketding-u bo‘ldim hayolkash.”- voqealar ketma-ketligining xabari emas, ruhiy holat, sening ketishing lirik qahramonni qay ko‘yga solganlik psixik holati tasvirlanmoqda. Bu o‘rinda **va** bog‘lovchisini qo‘llash gapning ta’sir kuchini yo‘qqa chiqaradi. Bu usuldagi tahlil o‘qituvchi nutqining takomilida katta ahamiyat kasb etadi.

Topshiriq shu tartibda bajarilganidan so‘ng, darslikda berilgan nazariy ma’lumotni tushuntiriladi.

Qismlarini teng bog‘lovchilar bo‘lsa, esa so‘zlari –u,(-yu), -da yuklamalari yordamida bog‘langan gaplar bog‘langan qo‘shma gaplar hisoblanadi. Ularning qolipi.



Teng bog‘lovchilar orqali birikadi.

O‘quvchilarga nazariy ma’lumot tushuntirilgach, ularning qay darajada

anglaganligini tekshirib ko‘rib bilimlarini mustahkamlash maqsadida mashq bajartiriladi. O‘qing. Berilgan gaplardagi bog‘lovchili vositalarni aniqlang. Bu mashq ham yuqoridagi topshiriqning mantiqiy davomi bo‘lib o‘quvchilar bu mashqni bajarishda qiyinchilikga uchramaydi. Mashq “ Kim tez bajaradi “ o‘yini orqali olib boriladi. O‘yinga binoan birinchi bo‘lib bajargan uchta o‘quvchini doskaga chiqarib ularga shu mashq yuzasidan savollar beriladi.

1. Sarbon shundoq dedi – da, quchog‘ini ochib Abu Bakr tomon kela boshladi.

2. To‘lagan ro‘molchasini cho‘ntagidan oldi va boshqatdan qatladi-da, yana cho‘ntagiga solib qo‘ydi.
3. Uzun bir yog‘och topdi-da, asta olmani o‘ziga tomon “hayday” boshladi, ammo olma quvlik qilib yigitni aldar, yog‘och uchi tegishi bilanoq suvga bir sho‘ng‘ib yana “qochib” qolardi.
4. Yo‘q faqat meni bilishmaydi, lekin boshqalarni jumladan, seni ham, yaxshi bilishadi.
5. Hujrasiga qaytdi-yu, o‘ylay boshladi.
6. Asalxon e‘tibor bilan tingladi-yu, javob berish o‘rniga indamay yo‘lida keta berdi.

Bu mashqda birinchi gap yuklama, ikkinchi gap biriktiruv, uchinchi gap yuklama, to‘rtinchi gap zidlov, beshinchi gap yuklama, oltinchi yuklama munosabati bilan bog‘langan.

Demak bu mashqda yuklama yordamida bog‘langan gaplar ko‘proq ekan.

Shuni ham aytish kerakki ona tili darslarida har bir bajarilgan mashqdan keyin, ya‘ni gramatik hodisa tahlil qilingach, albatta gapning mazmuni o‘quvchilardan so‘ralmog‘i lozim. Bunday usul, birinchidan darsning ta‘limiy tomonini, ikkinchidan tarbiyaviy tomonini ta‘minlaydi. Mavzuni mustahkamlash uchun bajarilgan birinchi (oldingi) mashqda qo‘shma gaplari bog‘lovchi vositalar haqida tushuncha berilgan bo‘lsa, navbatdagi mashqda o‘quvchilarni qo‘shma gap tuzishga yo‘llaymiz. Qo‘shma gap tuzish ixtiyoriy ravishda bo‘lmasdan balki aniq talab asosida qo‘shma gaplar tuzish topshiriladi. Bu bilan o‘quvchilar yozma nutqi ravonlashadi, tafakkuri rivojlanadi.

Demak, bu mashqda yuklama yordamida boglangan gaplar ko‘proq ekan. Mavzuni yanada mustahkamlash uchun keyingi mashq bajariladi.

Mashq. Berilgan fe‘llar ishtirokida bog‘langan qo‘shma gaplar hosil qiling. Bu mashqni bajarishda tarqatma materiallardan foydalaniladi. Kartochkalarda qo‘shma gap tuzish uchun kerak bo‘lgan so‘zlar aks etgan. O‘quvchilar berilgan fe‘llar asosida qo‘shma gap hosil qilishi kerak. Avvalo o‘quvchilar uch guruhga

bo‘linadi. Guruh a‘zolari o‘yin shartlari bilan tanishtiriladi. Buning uchun o‘quvchilar qisqa vaqt ichida topshiriqlarini to‘g‘ri guruh a‘zolari bir yoqadan bosh chiqarib bajarishlari talab etiladi. So‘ngra har bir guruh o‘zlariga topshirilgan so‘zlarni o‘qib, berilgan fe‘llardan qo‘shma gap hosil qilishadi.

Birinchi guruhga.

- 1) Oqardi, to‘kildi.
- 2) Bukuldi, salom berdi.
- 3) Nigoron bo‘ldi, nasib qilmadi.
- 4) Hayron bo‘ldi, nafasi tiqildi.

Ikkinchi guruhga.

- 1) Yiqildi, shikastlandi.
- 2) Azoblandi, qiynaldi.
- 3) Kezdi, uyg‘ondi.
- 4) Aynidi, yog‘a boshladi.

Uchunchi guruhga

- 1) Qo‘msada, yig‘ladi.
- 2) Yuraverdi, g‘oyib bo‘ldi.
- 3) O‘yladi, bag‘ishladi.
- 4) Sevindi, yoshlandi.

Namuna: Havo aynidi va birdan yomg‘ir yog‘a boshladi.

Mashq shu tartibda bajarilgandan so‘ng eng to‘g‘ri va tez bajargan guruhni rag‘batlantirib baholanadi. Shuni ham aytish kerakki, nima uchun topshiriqda fe‘llardan namuna berilib, uni bajarish talab qilingan? Ma‘lumki, fe‘l (kesim) gapning markazi sanaladi. Yoki gapda ifodalanishi kerak bo‘lgan har qanday va hamma fikr fe‘l bilan boshqariladi, ya‘ni fe‘l hamma holatlarni ochuvchi tugun hisoblanadi. Demak, o‘quvchi o‘zidagi tarqoq fikrlarni jamlab berilgan fe‘llarga birlashtiradi. Bu mashq o‘quvchilar uchun ham fe‘l mavzusini takrorlash bo‘lsa ham qo‘shma gap tuzishda nimalarga e‘tibor berish kerakligini o‘ylab, ularni fikrlashga davat etadi.

Keyingi mashq.

Qo'shma gaplar orasiga qavs ichida berilgan vositalardan mosini qo'yib ko'chiring.

Hamma o'quvchilar kitoblaridagi ushbu mashqni o'z daftarlariga orfografik xatolarga yo'l qo'ymasdan chiroyli qilib, topshiriq asosida birinchi tezlikda bajargan a'lo baho bilan taqdirlanadi. Dastlabki yettita o'quvchi mashqni bajarib bo'lgach doskaga yozdiriladi. Topshiriqni to'liq bajarishga ulgurmagan o'quvchilar doskadan ko'chiradilar.

1. Dushman nasihatiga qarab ish tutmoq xato, ammo nima deganini bilib qo'ymoq ravo.

(Abdulla Qodiriy)

2. Har bir narsa aqlga muxtoj, yohud, aql tajribaga muxtojdir.

3. Tong cho'qqidan oshdi va qishloq uzra quyildi.

(T. Sodiqova)

4. Biz shahar havosidan qochib, tabiatda jon asragimiz keladi-yu, biroq sho'rlik tabiatning o'zi bizdan bezillaydigan bo'lib qolibdi.

(O'tkir Hoshimov)

5. Paxta terish bilan bandman, ammo butun diqqatim Muattarda.

(U. Nazarov)

Mashqlar bajarilgandan so'ng o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga savollar beriladi.

Savollar.

1. Bog'langan qo'shma gap deb qanday gaplarga aytiladi.

2. Qismlari bo'lsa, esa bog'lovchi vazifasidagi so'zlar yordamida bog'langan qo'shma gap tuzing.

3. Qismlari -u, -(yu), -da yuklamalari yordamida bog'langan qo'shma gap tuzing.

Savollarga o'quvchilar tomonidan javob olingach o'quvchilarning mavzu yuzasidan qanday bilimga egaligi ma'lum bo'ladi. Bordi-yu ayrim noaniqliklar, g'alizliklar mavjud bo'lsa, o'qituvchi tomonidan umumlashtirilgan holda to'g'irlanadi.

Uyga vazifa.

“Kuz manzaralari” mavzusida matn tuzing. Unda bog‘langan qo‘shma gaplardan foydalaning.

2.1 Biriktiruv bog‘lovchisi yordamida bog‘langan qo‘shma gaplarni o‘tish.

Ma’lumki, bo‘g‘langan qo‘shma gaplarni komponentlarini biriktiruvchi vositalarga ko‘ra bir necha turga: biriktiruvchi bog‘lovchilar, yordamchi, zidlov bog‘lovchilari yordamida, ayiruv bog‘lovchilari yordamida, shuningdek, bo‘lsa, esa, kabi fe’llar yordamida bog‘langan qo‘shma gaplarga ajratamiz.

Shulardan biri biriktiruvchi bog‘lovchilar bilan bog‘langan qo‘shma gaplar bog‘langan qo‘shma gaplarning boshqa turlariga qaraganda ko‘proq qo‘llanishi, nutqiy ravon va osonligi bilan ajralib turadi. Qo‘shma gaplarning bu turini o‘tishda an’anaviy suhbat metodidan foydalanib dars o‘tish mumkin. Buning uchun, avvalo, mavzu asosidan berilgan topshiriqlar o‘quvchilarda mavjud bilimlari asosida bajarishadi.

Topshiriq. Ko‘chiring. Biriktiruv bog‘lovchisining tagiga chizing va qanday vazifa bajarayotganini ayting. Bu topshiriqni bajarish jarayonida o‘quvchilar biriktiruv bog‘lovchisi haqida dastlabki tushunchaga ega bo‘lishadi.

1. Ro‘zimatning rangi o‘zgardi va ko‘zlarida hamisha o‘ynab turadigan tabassum ifodasi to‘satdan yo‘qoldi. (Abdulla Qahhor)

2. Pakana yigit uyning ustun va devorlarini chertib deraza va eshiklarning bo‘yog‘ini hidlab ko‘rar edi. (Abdulla Qahhor)

3. Ro‘paradagi g‘orning bag‘ridan qora tutun ko‘tarildi, va u yerdan yo‘tal tovushi eshitildi.

4. Anor so‘zlar va Zaynab qalbi tol bargiday dir-dir qaltirar. (Hamid Olimjon)

O‘quvchilar yuqoridagi gaplar va bog‘lovchisi yordamida bog‘langanligini bilib oldi. Topshiriqni to‘g‘ri tahlil qilgan o‘quvchilarni taqdirlab baholaymiz va o‘quvchilarga darslikda berilgan nazariy ma’lumotni tushuntiramiz.

Biriktiruv bog‘lovchisi qo‘shma gapning payt, sabab-natija munosabatlaridan bo‘lgan qismlarini bog‘lab keladi. Qismlari o‘rtasida sabab natija munosabati ifodalangan qo‘shma gaplarda ikkinchi qism oldidan natija so‘zini qo‘shish

mumkin bo‘ladi. Ba‘zan –u (-yu), -da yuklamalari ham biriktiruv bog‘lovchilari bajaragan vazifalarni bajaradi.

O‘quvchilarga nazariy ma‘lumot tushuntirilgach ularning qay darajada anglaganligini tekshirib ko‘rib bilimlarini yanada mustahkamlash ushuni zaruriy mashq bajaritiriladi. Matnni o‘qing biriktiruv bog‘lovchilarni topib, ularning gapdagi vazifalarini tushuntiring. Bu mashq o‘quvchilar tomonidan og‘zaki bajariladi. Bu esa og‘zaki nutqning mustaqil fikr bildirish, matn ichidan biriktiruv bog‘lovchilarini topishda ko‘nikma va malaka hosil qiladi.

Qadim zamonda Kushoniylar davlatida pahlavon Shukrulloh ismli sarkarda yashagan ekan va uning dovrug‘i ellarda doston ekan. Sarkarda jangga sovuq-dubulg‘asiz kirarkan hamda bu jangda uning qo‘shini hamisha g‘alaba qilarkan.

Bir kuni temirchi sarkardaning iltimosiga ko‘ra unga qalqon, sovut yasab beribdi va u navbatdagi jangda hammani hayron qoldirib qalqon, sovut kiygan holda qilich bilan, paydo bo‘libdi. Shunda atrofdagilar ajablanib: “Ey sarkarda bu holda hech jangga kirmas edingiz-ku?!” – deyishibdi. Sarkarda bir xo‘rsinib javob beribdi: “Janglarda meni duo qilib turguvchi onaizorim olamdan o‘tdilar. U kishining duolari menga qalqon, sovut, dubulg‘a edi. Endi u kishi yo‘qlar...”

Matndagi qo‘shma gaplarni biriktiruv bog‘lovchilari bog‘lab kelmoqda. Darhaqiqat, bu bog‘lovchilarni tushirib qoldirsak ham gap (matn) ning umumiy mazmuniga putur yetmaydi. Lekin nutq mazmunini chuqurroq anglash, stilistik qulaylik tug‘dirish uchun bu bog‘lovchilar qo‘llanilmoqda.

Mashqdagi bog‘lovchilar aniqlangandan so‘ng, bevosita uning tarbiyaviy ahamiyatiga ham o‘qituvchi tomonidan to‘xtalib o‘tiladi. Matnda onaning naqadar buyukligi, uning birgina duosi o‘g‘lini xavf-xatardan himoya qilaolishi. Tirikligida onaning qadriga yetish kerakligi Hamisha onalarimizni boshimizda ko‘tarib, e‘zozlab ardoqlashimiz kerakligi o‘quvchilarga uqtiriladi. Bunday matndan o‘quvchilar o‘zlariga kerakli xulosani, albatta, chiqarishadi.

Mashq. Nuqtalar o‘rniga bog‘lovchilardan mosini qo‘yib ko‘chiring. Mashqni dastlab orqa partada o‘tirgan o‘quvchilar xayollarini bir joyga yig‘ish uchun bitta

gaplarni ifodali o'qib berishadi. Mashq guruh bo'lib bajariladi. Uchta qatorda joylashgan partalarga qarab o'quvchilarni uch guruhga bo'lib olamiz. Hamma bir kishi uchun, bir kishi hamma uchun tamoyiliga amal qilib, qaysi qator to'liq mashq, topshiriqni bajarishini kuzatamiz va birinchi tog'ri tez bajargan guruhni jetonlar bilan baholaymiz.

1. Dekabr oyining boshida bir qor yog'di-da keyin yan oftob charaqlab, havo ilib ketdi. (Pirimqul. Qodirov)

2. Ko'pirar tomirlarda qon, lekin portlar hademay bu o'tli vulqon.

(G'afur G'ulom)

3. Kuzning o'rtalarida havo bir-ikki daf'a aynidi-yu vodiya qalin tuman tushdi.

(Said Ahmad)

4. Keta boshladim-u notanish odamning qayoqqa borgani meni qiziqtiraverdi.

(Sh. Xolmirzayev)

5. Bu yerda uzumzor va yong'oqzorlar ko'p edi. Shuning uchun tog' manzarasi ham boshqacha edi.

Demak, bu mashqni nuqtalar o'rniga ammo, lekin, shuning uchun bog'lovchilari va -yu, -da yuklamalarini qo'yish bilan bajardik. Mashqdagi qo'shma gaplarni yuklamalar va teng bog'lovchilarni qo'llamasak ham qo'shma gaplarga putur yetmaydi. Lekin gap mazmunini chuqurroq anglash, stilistik jihatdan qulaylik tug'dirish uchun bu bo'lovchilar qo'llanilmoqda.

Savollar.

1. Biriktiruv bog'lovchilari qanday munosabatda bo'lgan qo'shma gap qismlarini bog'laydi.

2. Qo'shma gap qismlarini bog'lab kelgan va bog'lovchisi o'rnida qaysi hollarda -u (-yu) -da yuklamalarini qo'llash mumkinligini aniqlang.

Javoblar qoniqarli bo'lgach, o'quvchilarga uyga vazifa beriladi.

Mashq. O'zingiz o'qiyotgan badiiy asardan bog'langan qo'shma gaplarga 6 ta misol toping. Ularning bog'lovchi vositalarini aniqlang.

Namuna: Oqsoqol buva beriroqda turgani uchun lat yega-nu tirik qolgan.

(O'tkir Hoshimov)

(Ikki eshik orasi)

2.2 Zidlov bog‘lovchilari yordamida bog‘langan qo‘shma gaplarni o‘tish.

Bog‘langan qo‘shma gaplarning yan bir turi zidlov bog‘lovchilari asosida yasalgan (hosil qilingan) qo‘shma gaplardir. Bu qo‘shma gapni o‘tishda o‘quvchilardan uzoq o‘tgan bog‘lovchilar gaqida so‘rab suhbat uyushtiriladi. Bog‘lovchilarning nima uchun zidlov bog‘lovchilar deyilishi o‘quvchilar bilan birgalikda asoslanadi. Bu o‘z o‘rnida bo‘limlararo integratsiya hosil qiladi. Ba‘zan zidlov mazmuni kuchaytirish uchun zidlov bog‘lovchisi va bu vazifada qo‘llanilgan -u (-yu) –da yuklamalari ishlatiladi. Shuning uchun mavzuni dastlab topshiriqlar bajarish bilan boshlaymiz.

Topshiriq. Ko‘chiring. Gaplar tarkibidagi zidlov bog‘lovchilarini topib ularning vazifalarini ayting. Topshiriq umumiy tarzda o‘quvchilar tomonidan bajariladi.

1. Dilimizda orzu balandroq edi, lekin ko‘klam biroz noqulay keldi.

(Oybek)

2. Gul tog‘risida yozganini ko‘rganim yo‘q, lekin paxta haqida ko‘p yozadi.

(Abdulla Qahhor)

3. Yo‘lning ikki chetidagi g‘alla tovlanardi, ammo ular o‘tgan yillardagi kabi baland emas edi. (Oybek)

4. Kechasi yana qor yoqqan, biroq havo unchalik sovuq emas edi. (Said Ahmad)

O‘quvchilardan topshiriqni so‘raganimizdan so‘ng. U bo‘yicha xulosa chiqaramiz va xulosaga tayangan holda darslikda berilgan nazariy ma‘lumotni tushuntiramiz. Zidlov bog‘lovchilari bog‘langan qo‘shma gap qismlarini bog‘lash bilan ular o‘rtasida zidlik munosabati mavjudligini ham ifodalaydi. Zidlov bog‘lovchilari qo‘shma gapning ikkinchi qismi boshida qo‘llanadi va qo‘shma gap qismlari vergul bilan ajratiladi –u (-yu) – da yuklamalari bog‘langan qo‘shma gap qismlarini bog‘lash bilan birga ular o‘rtasida zidlash ketma-ket munosabati mavjudligini bildiradi. Zidlov bog‘lovchilari haqida nazariy ma‘lumotga ega bo‘lganimizdan so‘ng mavzuni mustahkamlash uchun o‘quvchilar bilan mashg‘ulotlarni bajarib chiqamiz. Mashq. Ko‘chiring zidlov bog‘lovchilarini

aniqlab ularning qanday vazifa bajarayotganini ayting. Mashqni biz sinfda uncha faol o‘quvchilarga bajartirsa yaxshi bo‘ladi. Ulardan qanday bog‘lovchi yordamida bog‘lanayotganini va ularning gapdagi vazifalarini tushuntirib berishlari so‘raladi.

1. Ashula nihoyasiga yetdi, lekin bir zumdan keyin yana yangi tovush parvoz qildi.

(Oybek)

2. Bu daraxtning bo‘yi baland, lekin mevasi kam. (Oybek)

3. Hammasini tinglardim, ammo o‘xshashini topmasdim aslo. (Hamid Olimjon)

4. Oy yoritadi, lekin isitmaydi.

5. Maqtamasman moziyni, biroq o‘tmishingni o‘ylayman. (Abdulla Oripov)

Mashq shartiga ko‘ra o‘quvchilar qo‘shma gaplarni biriktiruvchi vositalar – zidlov bog‘lovchilarni aniqlashi va ularning vazifasini aytishi kerak edi. Bu o‘rinda asosiy e‘tibor gap mazmuniga qaratilmog‘i kerak: qo‘shma gap komponentlarini bog‘lovchisiz o‘qitib ko‘rsak, bog‘lovchilarning gapdagi vazifasini aniq namoyon bo‘ladi. Masalan, bu daraxtlarning bo‘yi baland, lekin mavasi kam. Birinchi gapda ta’kid kuchli, ya’ni bo‘yi baland, yirik daraxt bo‘lgani bilan. Asosiy e‘tibor mevaning kamligiga qaratilmoqda.

Ikkinchi gapda esa, bunday ma’no ifodalanmagan: bo‘yi ham baland, mevasi ham umumiy sifatlash anglashilyapti. Ma’lumki, nutqimizda ko‘pgina til hodisalari funksional qo‘llanadi. Shulardan biri bog‘lovchilar bilan yuklamalarning funksianalligidadir. O‘quvchilarda ana shunday malakalarni shakilantirish maqsadida quydagi mashiqni bajartiradi. Yuklamalarini almashtirish mumkun bo‘lgan gaplarni aniqlang va buning sababini tushintiring. Ushbu mashqni bajarishda 6x6x6 metodidan foydalaniladi . Bu usul guruhning har bir a’zosini faollik, o‘z fikrini ifoda etish guruhdoshlarining fikrini tinglash va tanlay olish o‘rtaga tashlangan bir necha fikirni umumlashtira olish shuningdek o‘z fikrini himoya qilishga o‘rgatadi. Ushbu metodda yeti, sakkiz nafar o‘quvchidan iborat bo‘lishi mumkin. Mashqdagi gap o‘qiladi zidlov bog‘lovchilari bilan –u (-yu)-da yu klamalarini almashtirish mumkun bo‘lgan gaplar aniqlanadi va guruh sardori tamonidan yozib javobi eshitiriladi . Birinchi va to‘g‘ri chiroyli yozib bo‘lgan guruh har bir a’zosi rag‘batlantirilib baholanadi.

1. Soni ko‘p lekin salmog‘i yo‘q- Soni ko‘p-u salmog‘i yo‘q.
2. Mayli, siz yashirdingiz, ammo men yashirmayman- Mayli siz yashirdingiz men yashirmayman.
3. Men o‘z fikrimni aniq tushintirib berishga harakat qilyapman, lekin siz uni eshitishni xohlamayapsiz-Men o‘z fikrimni aniq tushintirib berishga harakat qilyapman-u siz uni eshitishni xohlamayapsiz.
4. Termometir hamshiraning qo‘lidan tushib ketdi-yu bir tomchi simob yaltirab po‘lga dumaladi - Termometr hamshiraning qo‘lidan tushib ketdi ammo bir tomchi simob yaltirab po‘lga dumaladi.
5. Ba’zilar hordiq chiqarishga kirishadilar –u ba’zilar podalari izidan cho‘lga qarab ketadilar - Ba’zilar hordiq charishishga kirishadilar lekin, bazilar podalari izidan cho‘lga qarab ketadilar.

Mashq o‘quvchilar tarafidan bajarilgandan so‘ng umumiy xulosa tarzida savollar beriladi.

Savollar.

1. Zidlov bog‘lovchilari qanday munosabatda bo‘lgan qo‘shma gap qismlarini bog‘lab keladi.
2. Zidlov bog‘lovchilari o‘rnida u- (-yu) –da yuklamalarini qo‘llab ko‘ring.
3. Zidlov bog‘lovchilari qanday tinish belgisi bilan yozilishini tushuntiring.

Bu mashqni bajarish orqali o‘quvchilar zidlov bog‘lovchilari bilan –u (-yu) –da yuklamalarining o‘rnini almashtirganda ham, hech qanday ma’no o‘zgarishi yuz bermayotganligini ko‘rishdi va zidlov bog‘lovchilari o‘rnida yuklamalardan foydalanishlari mumkinligini bilib olishdi.

Savollarga javob berilganidan so‘ng uyga vazifa beriladi. Mashq. “Do‘stlikdan yoshlikdan boshlanadi” mavzusida matn tuzing qanday qo‘shma gaplardan foydalanganingizni ayting.

2.3 Ayiruv bog‘lovchilari yordamida bog‘langan qo‘shma gaplarni o‘tish.

Teng bog‘lovchilarning bir turi bo‘lgan ayiruv bog‘lovchilari teng huquqli sodda gaplarni birlashtirish uchun xizmat qiladi. Har bir mavzu haqida nazariy ma’lumot berishdan oldin darslikda berilgan topshiriqlar bajarilsa o‘quvchilarda yangi

mavzuga nisbatan tushuncha paydo bo‘ladi. Ular topshiriq asosida qoida chiqarishga harakat qilishadi. Biz ham shu metoddan foydalangan holda o‘quvchilarga birinchi topshiriqni bajartiramiz.

Topshiriq. Berilgan gaplarni ko‘chiring ularni qismlarini bog‘lovchi vositalarini aniqlang.

1. Yo siz keling, yo men boray. (qo‘shiq)
2. Dam jahlim chiqadi, dam kulгим qistaydi. (Oybek)
3. Goh osmonni tutib ashulla yangraydi, goh allaqayerdan garmon tovushi eshitiladi. (Oybek)

Demak, topshiriq har bir o‘quvchi tomonidan alohida o‘zlarining daftarlariga

bajariladi. Bunda asosiy e‘tibor qo‘shma gap qismlari (komponentlari)ni biriktiruvchi yuklamalar (bog‘lovchi vazifasida kelgan)ga qaratiladi. Gaplarning mazmuniga etibor bersak, ketma-ket yuz bergan, ammo bir-biriga bog‘liq voqealar ifodalanmoqda. Bu gaplarni bog‘lovchi vositalarning lug‘aviy ma‘nolar yo‘q, lekin gap mazmuni ularga huddi ma‘no yuklaganday tuyuladi. Bu o‘rinda yuklamalarning qanday vazifa bajarayotgani eslatilmog‘i kerak. Shundan so‘ng darislikda berilgan nazariy malumot o‘quvchilarga bilimlarni tayyor xolda berish metodi asosida tushuntiriladi.

Ayiruv bog‘lovchilari qo‘shma gap qismlarini bog‘lash bilan birga ularda ifodalangan voqea hodisalarning galma –gal ro‘y berishini yoki ulardan faqat bittasining yuzaga chiqishini taminlaydi.

Yo (yoki) bog‘lovchisi yolg‘iz holda ham takror holda ham qo‘laniladi va yozuvda takror holda qo‘laniladi va yozuvda takror qo‘lanayotgan bog‘lovchidan oldin vergul qo‘yiladi.

Nazariy ma‘lumot mustahkamlash uchun darslikda berilgan mashiqlar o‘quvchilar faoligida bajariladi.

Mashq. Ko‘chiring. Qo‘shma gap qismlarini bog‘lovchi vositalarni va qismlar o‘rtsidagi mazmuniy munosabatlarni aniqlang.

Bu mashqni ham har bir o‘quvchi alohida bajaradi. O‘quvchilarni navbatma-navbat doskaga chiqarib mashqlarni bajartiramiz. Bunda o‘quvchilarni yozuv savodxonligi oshadi va mustaqil fikrlashga o‘rganadi. Ularni bajargan topshiriqlari asosida baholanadi.

1. Uzoqlardan keng vodiy quchog‘ida goh ko‘m-ko‘k o‘t bosib yotgan yaylovlar ko‘rinadi, goh qop-qorong‘u daralar ko‘zga tashlanadi.
2. Tansiq goh shap-shup suv kechib yuradi, goh uning oyoqlari yelimday loyga botadi.
3. Mashinaning nuqsoni bo‘lsa, tuzatiladi yo yana yaxshirog‘i yasaladi.

(Abdulla Qahhor)

4. Yo zaradozi to‘ning to‘zibmi qoldi, yoki so‘kildimi suvsar telpaging.

(M.Lermantov)

Birinchi gap goh...goh takror bog‘lovchilari yordamida bog‘lanib kuzatuvchining mavjud holatga – goh ko‘m-ko‘k o‘tlar, goh daralarga munosabati anglashilmoqda.

Ikkinchi gap ham goh-goh takror bog‘lovchilari yordamida bog‘langan bo‘lib, kuzatuvchining qanday holatda goh suv kechib, goh oyoqlari loyga yelimday botgani ko‘rinadi.

Uchunchi va to‘rtinchi gaplar esa ayiruv munosabatidan kelib chiqib yo bog‘lovchisi har ikki gapning ham ma‘nosini izohlab, to‘ldirib kelmoqda.

O‘quvchilar mashqni bajarish jarayonida ancha tushunchaga ega bo‘ldilar. Shuning uchun qolgan mashqlarni ham ularning faolligida bajaramiz.

Yo....., yo...; goh..., goh...; ba‘zan..., ba‘zan...; dam..., dam...; yo; yoki; bog‘lovchilarining har biri ishtirokida gaplar tuzing. Qismlar o‘rtasidagi mazmuniy munosabatni tushuntiring.

Namuna: Xona ichida goh pashshaning g‘o‘ng‘illagani eshitaladi, goh xonadon sohibining ohista yo‘talgani quloqqa chalinadi.

(Sh.Xolmirzayev)

Mashq bajarilishi bilan birga o'quvchilarga qo'shimcha tarzda savollar ham berib mavzuni yanada mustahkamlaymiz o'quvchilar baholangandan so'ng uyga vazifa qilib mashq beriladi. Yoki..., yoki...; yo..., yo...; goh...; goh...; bog'lovchilari ishtirok etgan to'rtta sodda gap va to'rtta qo'shma gap yozing, yo, yoki bog'lovchilari bilan goh..., goh...; ba'zan..., ba'zan...; bog'lovchilari o'rtasidagi mazmuniy farqni tushuntiring.

2.4 Bo'lsa, esa so'zlari yordamida bog'langan qo'shma gaplarni o'tish.

Bog'langan qo'shma gaplarning qismlari teng huquqlidir ular o'zaro teng bog'lovchilar va teng bog'lovchi vazifasini bajaruvchi yuklamalar vositasida birikadilar. Lekin shunday bog'langan qo'shma gaplar ham mavjudki, ularning komponentlari teng bog'lovchilar bilan ham, yuklamalar bilan ham bog'lanmaydilar. Ular ana shunday vazifada keluvchi so'zlar – fe'llar yordamida ham birikishi mumkin. Demak, qo'shma gaplarning turi ularni bog'lovchi vositalarga bog'liq. Ana shu mavjud ma'nolar bog'lovchi vositalar yordamida birikadi. Bu mavzuni o'tishda ham an'anaviy topshiriqni bajarishdan boshlanadi.

Topshiriq. Ko'chiring. Qo'shma gaplarni qismlarga ajrating. Bo'lsa, esa so'zlarining vazifasini aniqlang, Ushbu topshiriqni bajarishda o'quvchilarni zerikib bee'tibor qoldirmaslik maqsadida ularga topshiriq asosida savollar tuzib murojaat qilish mumkin. Buning uchun avval doskaga berilgan bo'lsa, esa so'zlarini yozib so'ngra berilgan so'zlarning gapdagi vazifasini aniqlang. Ular ishtirokida qo'shma gap hosil qiling. O'quvchilar o'z javoblarini og'zaki tarzda galma-gal bayon etishadi. Bunda to'g'ri yoki noto'g'ri erkin o'z fikrlarini bildiradi. Barcha o'quvchilar o'z fikrlarini bildirgandan so'ng, to'g'ri javob doskaga yoziladi. Bo'lsa, esa so'zlari bog'langan qo'shma gap qismlarini bog'lash bilan birga ular o'rtasida qiyoslash va zidlash munosabati mavjudligini ifodalaydi. O'quvchilar bilan nazariy ma'lumotga ega bo'lgandan so'ng yuqoridagi topshiriqni ular bilan birgalikda bajaramiz.

1.Rejadagi zarur ishlarni amalga oshirishga vaqt yetkaza olmayapman, sen bo'lsang faqat dam olaylik deysan. (Gulxan)

2. U kim bo'lsa bo'lsin men esa arxitektor bo'laman. (G'uncha)

Topshiriqni bajarish jarayonida o'quvchilar faolligini ta'minlab, erkin fikr yuritishga o'rgatiladi. O'quvchilarni mustaqil fikrlash muayyan mavzuni muhokama qilishga ijodkorlikka yetaklaydi.

Ular o'z javoblarini to'g'riligini doskaga yozilgandan so'ng anglaydi.

O'quvchilar bilim saviyasini hamda ularning diqqatlarini bugungi mavzuga tortish maqsadida topshiriqlar o'qituvchi nazorati ostida o'quvchilar tomonidan bajariladi. Ular bilimiga qoniqish hosil qilingach, darslikda berilgan nazariy ma'lumotni o'quvchilarga tushuntiriladi.

Bo'lsa, esa so'zlari bog'langan qo'shma gap qismlarini bog'lash bilan birga, ular o'rtasida qiyoslash va zidligini ifodalaydi. Bo'lsa, esa so'zlarini qiyoslanuvchi bo'lakdan so'ng keladi.

Nazariy ma'lumotni tushintirgach o'quvchilar qay darajadabilim, ko'nikma, malaka hosil qilganligini tekshirib ko'rib bilimlarini yanada mustahkamlash maqsadida mashq bajariladi. Bo'lsa, esa so'zlaridan mosini qo'yib berilgan gaplarni davom ettirib qo'shma gaplar hosil qiling, daftaringizga yozing. Bu mashq bir muncha murakkab bo'lib o'quvchilarni chuqurroq o'ylashga, fikrlashga undaydi. Mashq har bir o'quvchi tomonidan daftarga bajariladi. To'g'ri va chiroyli yozgan o'quvchilar rag'batlantirilib baholanadi.

1. Halol mehnat ro'zg'orga qut baraka olib keladi, harom mehnat bo'lsa ro'zg'ordan qut barakani uchiradi.
2. Bulbul navosi ko'ngillarni shod ayladi, insonlar esa ularni hamisha avaylab asrashadi.
3. Mehr-muruvvat saxovat insonlarni bir-biriga yaqinlashtiradi, yomonlik esa ularni bir-biridan uzoqlashtiradi.
4. Mehnat bilan har kishi murodiga yetadi, murodiga yetishi uchun esa albatta mehnat qilishlari darkor.
5. Oqil-u donoga yo'ldosh bo'lgan kishi hech qachon yo'ldan adashmaydi, nodonga yo'ldosh bo'lgan bo'lsa albatta adashadi.

Yuqoridagi mashqda o'quvchilar **bo'lsa, esa** so'zlarini berilgan gaplarga qo'yib yana gap hosil qilishdi. Demak, ular bu mashq orqali bo'lsa, esa so'zlari yordamida yana gap hosil qilish, mukinligini bilib olishdi.

Keyingi mashq o'quvchilarni guruh bo'lib ishlashga o'rgatadi. Bu mashqni bajarish uchun o'quvchilarni 2 guruhga bo'lamiz va doskaga ikkita guruhdan bittadan a'zo chiqib yozishadi, qaysi guruh brinchi va to'liq yozib bo'lsa, o'sha guruh o'qituvchi tomonidan rag'batlantiriladi. Qolgan guruhga esa qo'shimcha tariqada savollar beriladi.

Mashq. Gaplarni o'qing **bo'lsa esa** so'zlarining gapdagi vazifalarini tushuntiring.

1. Jahl – dushman, aql esa do'stdir.
2. Dono aybini o'zidan axtaradi ahmoq bo'lsa do'stin ayblaydi.
3. Aql ko'pga yetkazadi hunar bo'lsa, hunar bo'lsa insonni ko'kka ko'taradi.
4. Rostgo'ylik odamni kamolatga yetaklaydi, yolg'onchilik esa uni halokatga olib boradi.
5. So'zning yumshog'i g'azabni so'ndiradi, so'zning qattig'i esa odamni o'ldiradi.

Bu mashqdan shunday xulosaga kelish mumkinki, yuqoridagi mashqda o'quvchilar bo'lsa, esa so'zlarini nuqtalar o'rniga qo'yib yangi gap hosil qilishgandi. Endi esa ular tushunchaga ega bo'lishgan holda bu bog'lovchilarning vazifalarini aniqlashadi. Demak, bu mashqda bo'lsa, esa so'zlari gaplarni o'zaro bir-biriga mazmuniy bog'lashdan tashqari ularning ta'sirchanlik kuchini oshirib, o'quvchiga gap mazmunini yana ham aniqroq va soddaroq tushunishiga yordam bermoda.

Mashqdan so'ng an'anaviy tarzda savollar beriladi.

Savollar.

1. Bo'lsa, esa so'zlari qanday munosabatda bo'lgan qo'shma gap qismlarini bog'laydi?
2. –u (-yu) – da yuklamalari qanday munosabatda bo'lgan qo'shma gap qismlarini bog'laydi?
3. Qaysi hollarda –u (-yu) –da yuklamalari o'rnida va bog'lovchisini qo'llash mumkin?

4. –u (-yu)-da yuklamalari o‘rniga lekin, ammo bog‘lovchilarini qo‘yib ko‘ring. Qaysi hollarda ularni almashtirib qo‘llash mumkinligini izohlang.

5. –u (-yu)-da yuklamalarining imlosini izohlang.

Savollarga o‘quvchilar tomonidan javob olingandan so‘ng uyga vazifaga beriladi.

O‘zingiz sevgan badiiy asardan oltita bog‘langan. Qoshma gap topib, ko‘chiring.

Bog‘lovchi vositalarni tushuntiring.

III.bob. Ergashtiruvchi bog‘lovchili qo‘shma gaplarni o‘tish va ularni teng bog‘lovchili qo‘shma gaplarga qiyoslash.

Mavzuni boshlashdan oldin 8-sinfda so‘z birikmasi yuzasidan egallangan bilim, malaka ko‘nikmalar xotirada tiklanadi va takrorlanadi. O‘quvchilar berilgan so‘z birikmalaridagi hokim va tobe so‘zni aniqlaydilar.

Katta bino, uchta o‘quvchi, maktabning bog‘i, istiqlol odimlari singari so‘z birikmalaridagi hokim va tobe so‘z aniqlangach, o‘quvchilardan bu tushunchalarni, egallangan bilimlarga tayangan holda, xotirada tiklash va sharhlash talab etiladi.

Ular: “Hokim so‘zdan beriladigan so‘roqqa javob bo‘lib keladigan so‘z tobe so‘zdir. Tobe so‘z odatda hokim so‘zdan oldin kelib, bu so‘zning ma’nosini to‘ldiradi“ degan umumlashmani yana bir bor takrorlaydilar. Shundan so‘ng darslikda berilgan topshiriq o‘quvchilar tomonidan bajariladi.

Topshiriq. Berilgan gap qismlarining qanday bog‘lovchi vositalar yordamida bog‘langanini aniqlang. Topshiriq umumiy tarzda o‘quvchilar tomonidan bajariladi.

1. Olim bo‘lsang, olam seniki. (Maqol)
2. Kamtar bo‘l, chunki kamtarlik insonni kamolatga boshlaydi.

(„Tafakkur gulshani“)

Bu topshiriqda birinchi gap –sa shart bog‘lovchisi orqali bog‘langan, ikkinchi gap esa chunki sabab bog‘lovchisi orqali bog‘langanligini o‘quvchilar bilib olishdi. Endi darslikda berilgan nazariy ma’lumot o‘quvchilarga tushuntiriladi.

Qismlari ergashtiruvchi bog‘lovchilar yoki shunday bog‘lovchi vazifasidagi so‘zlar yordamida bog‘langan qo‘shma gaplar ergashgan qo‘shma gaplar hisoblanadi.

Mashq. Gaplarni ko‘chiring. Qo‘shma gap qismlarini bog‘lovchi vositalarini aniqlab, qo‘shma gap turini ayting. Mashq umumiy tarzda o‘quvchilar tomonidan daftarlariga yoziladi va izohlanadi. Birinchi tez va tog‘ri bajargan o‘quvchilar baholanadi.

1. Agar qiz bo'lsang, otingni Kimsanoy qo'yaman, agar o'g'il bo'lsang Kimsanboy qo'yaman. (Said Ahmad)

2. Men bilgan yovuz kishilar u yerda bor, shuning uchun men bormayman.

(Omon Muxtor)

3. Hunar ado bo'lmas boylikdir, shu sababli yoshlik chog'ingdan boshlab biron-bir hunarni o'rganish payida bo'l.

4. Chin do'st yurakdan so'zlar chunki, u sening yomon bo'lishingni aslo xohlamaydi.

5. To'g'ri so'z qilichdan o'tkir, shuning uchun hamisha rost so'zlashga odatlan.

Demak, bu mashqdagi gaplar shart bog'lovchisi va sabab bog'lovchisi orqali birikmoqda. Gaplar avval tobe so'ng hokim so'zlar orqali ifodalangan. Buni gaplarga so'roq berib bilib olishimiz mumkin. O'quvchilarda ergashtiruvchi bog'lovchilar haqida birmuncha tushuncha paydo bo'ldi. Keyingi mashqni bajarishda o'quvchilar qiyinchilikka uchramaydi.

Mashq. O'qing ergashgan qo'shma gaplarni topib, ko'chiring. Ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositalarni aniqlang. Mashq o'quvchilarni uch guruhga bo'lgan holda bajariladi. Birinchi guruh ergashgan qo'shma gaplarni topib ko'chiradi, ikkinchi guruh bog'lovchi vositalarni aniqlaydi. Uchunchi guruh esa qanday ma'no anglatayotganini aniqlaydi.

Birinchi guruh. „A'lochilar“

1. Ortiqcha g'urur obro'yingni yo'q qilur, shuning uchun o'zingni boshqalardan baland tutma.
2. Kimda aql oz bo'lsa, undagi shuhratparastlik shunchalik kuchayadi.
3. Oraga shunday jimlik cho'kdiki, yuragi gupullab urayotgani aniq eshitila boshladi.(O'. Hoshimov)

Bu mashqda berilgan beshta gapdan uchtasi ergashgan ikkitasi bog'langan qo'shma gap ekan.

Ikkinchi guruh. „Bilimdonlar“

Birinchi gap shuning uchun ko'makchili qurilma orqali bog'langan.

Ikkinchi gap bo'lsa so'zi orqali birikkan.

Uchinchi gap –ki yuklamasi yordamida bog'langan.

Uchinchi guruh „Topqirlar“

1.Ortiqcha g'urur obro'yingni yo'q qilur ,shuning uchun o'zingni boshqalardan baland tutma.

Demak, bu gap shuning uchun ko'makchili qurilma orqali bog'langan, agar bu bog'lovchi bo'lmasa gapning mazmuniga putur yetadi, ta'sirchanligi yo'qoladi gapdan hech qanday ma'no anglab bo'lmaydi.

Keyingi gapni bo'lsa so'zini qo'ymasdan ham hosil qilsa bo'ladi, biroq gap oddiy gapga aylanib qoladi.

Uchinchi gapimizda –ki yuklamasi ham gapning ta'sirchanligini oshirib, gap mazmunini boyitib kelmoqda.

Bu mashq orqali shunday xulosaga kelish mumkin. Har qanday bog'lovchining gapda o'z vazifasi o'rni bor. Ularsiz hech qanday gapning mazmuni ham ta'sirchanligi ham oshmaydi. O'quvchilar bog'lovchilarning qanchalik kerakligini bilib olishdi. Endi darslikda berilgan savollar bilan o'quvchilarga murojat qilib, mavzu yana ham mustahkamlanadi.

Savollar.

1. Qanday qo'shma gaplarga ergashgan qo'shma gaplar deyiladi.
2. Ergashtiruvchi bog'lovchilarga qaysi bog'lovchilar kiradi.
3. –ki bog'lovchi vositasining qanday yozilishini izohlang.

Har bir bajarilgan mashqdan yoki yangi mavzu o'tilgandan keyin o'quvchilarga savollar barib borilsa, ularning eslab qolish xususiyati oshadi va mavzular qaytadan mustahkamlanadi. Endi yuqoridagi mashqlar orqali o'quvchilarni baholaymiz. Uchala guruh ham mashqlarni to'g'ri bajarib savollarga javob berganliklari uchun ularni rag'batlantirib baholab chiqamiz.Dars so'ngida o'quvchilarga uyga vazifa beriladi.

Uyga vazifa. Matnni ko'chiring. Ergashgan qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vositalarni aniqlang. Hikmatning mag'zini chaqishga urining.

Siringni barchaga aytishdan ehtiyot bo‘l, chunki mulohazakor degan so‘z ehtiyotkor bo‘lish degandan boshqa narsa emas. Agar siringni saqlasang, u sening asiringdir, agar oshkor bo‘lsa, sen siringning asiri bo‘lib qolasan.(Ibn. Sino)

3.1 Bosh va ergash gap mavzusini o‘tish.

Avvalgi darsda so‘z birikmalaridagi tobe va hokim so‘zni aniqlashning eslatilishi bejiz emas. Chunki bu zaruriy malakalar o‘quvchilarga qo‘shma gap tarkibidagi tobe va hokim gapni ajratish imkoniyatini beradi. Mavzu topshiriqlar asosida mustahkamlanadi.

Topshiriq. Berilgan qo‘shma gaplar tarkibidagi sodda gaplarni aniqlang. O‘quvchilar topshiriqni umumiy tarzda daftarlariga bajaradi. Birinchi bo‘lib bajargan o‘quvchi doskaga chiqib topshiriqni yozib sodda gaplarni aniqlab beradi.

1. Vatanimizning kelajagi shuning uchun ham buyukki, unda yashayotgan aholining katta qismini yoshlar tashkil etadi.(Azim Suyun)

2. Erta eksang, erta o‘rasan (Maqol)



Demak, birinchi gapimizda ikkita sodda gap bor. Bular

1. Vatanimiz kelajagi buyuk.

2. Unda yashayotgan aholining katta qismini yoshlar tashkil etadi.

Ikkinchi gapimizda sodda gap yo‘q doskada bajargan o‘quvchimiz to‘g‘ri yozganligi uchun uni rag‘batlantirib baholaymiz. Hamma o‘quvchilar topshiriqni shu tartibda bajargandan so‘ng topshiriq asosida xulosaga kelinadi. Birinchi gapimizdagi shuning uchun ergashtiruvchi bog‘lovchisi sodda gapga aylanib qoldi. Bundan ko‘rinadiki har qanday gapni ham ergashtiruvchi bog‘lovchili gap deb bo‘lmaydi. Gap bo‘lishi uchun esa biror bog‘lovchi qatnashishi shart ekan. Ikkinchi gapimizni esa sodda gapga aylantirib bo‘lmaydi. Endi darslikda berilgan nazariy ma’lumot tushuntiriladi.

Ergashgan qo‘shma gaplar tarkibida nechta gap bo‘lishidan qat’i nazar, doimo ikki qismdan tashkil topadi. Birinchi bosh gap ikkinchi ergash gap. Mazmuni

izohlanayotgan gap bosh gap, bosh gap mazmunini izohlayotgan gap ergash gap hisoblanadi. Ergashgan qo'shma gaplar asosan  yoki  qolipida ifodalanadi.

Ergashgan qo'shma gaplar tuzilishiga ko'ra so'z birikmalariga o'xshaydi. So'z birikmasi tarkibidagi so'zlar nechta bo'lishidan qat'i nazar doimo ikki qismdan hokim va tobe so'zlardan tashkil topadi. O'quvchilar mavzu haqida tushunchaga ega bo'lishdi. Endi mustahkamlash uchun mashq bajariladi.

Mashq. Ko'chiring. Qo'shma gap qismlarining qaysisi bosh gap, qaysisi ergash gap ekanini aniqlang.

Bu mashqni darsda bee'tibor o'tirgan o'quvchilarga o'qitib, mashq topshiriq asosida bajariladi.

1. Agar arqondan qo'llari chiqib ketsa, to tuman tarqalguncha yo'l topolmay sarson bo'lib yuraveradilar. (Said Ahmad)
2. Shuni mamnuniyat bilan ta'kidlaymanki, mening kasb tanlashimga otamning do'mbirasi sababchi bo'lgan. (Murod Muhammad Do'st)
3. Topgan obro'ni yo'qotmaslik shart, chunki obro ko'ylak emaski, yangisini bozordan olsang.(Omon Muxtor)
4. Birinchi qaldirg'och parvozini ko'rgan kishi qanday sevinsa, Avaz ham bundan shunday quvondi. (S. Siyoyev)

Demak, mashqdagi birinchi gap ergash gap, ikkinchi gapimiz esa bosh gap. Chunki kesimi tarkibida –sa bog'lovchisi gaplar hamisha ergash gap hisoblanadi. Ikkinchi gapimizda birinchisi bosh gap ikkinchisi ergash gap chunki kesimi tarkibida –ki, bog'lovchisi qatnashgan gaplar ko'pincha bosh gap hisoblanadi. Uchunchi gapimizning birinchisi bosh gap ikkinchisi ergash gap. To'rtinchi gapimizning birinchisi ergash gap, ikkinchisi bosh gap ekan. O'quvchilar mashqni shu tartibda bajarishgandan so'ng o'qituvchi tomonidan qo'shimcha tarzda mashq izohlanadi. Bu mashq orqali ko'rishimiz mumkinki gap boshini hamisha ham ergash gap deb

bo‘lmaydi. Avvalo ularning bog‘lovchilariga qarab, bog‘lovchilari bo‘lmasa savol berib qaysi bosh, qaysi ergash gap ekanligini aniqlashlari mumkinligi uqtiriladi. Navbatdagi mashq bevosita yuqoridagi mashqning mantiqiy davomidir.

Mashq. Gaplarni o‘qing bosh va ergash gaplarni aniqlang. Buni o‘quvchilar og‘zaki tarzda navbatma-navbat o‘qib bajarishadi. Chunki og‘zaki nutq shakllanishida mashqlarning ro‘li katta.

4. Shuni bilinki bitta so‘zning tig‘i yuzta shamshirdan o‘tkirroqdir.

5. Inson qanchalik kamtar bo‘lsa, u shunchalik maqtovga loyiqdir.


6. Kimning yuragida yaxshilik bo‘lsa, u doimo boshqalarga yaxshilikni ravo ko‘radi. Hamisha to‘g‘rilar yonida bo‘linglar, chunki ular hech qachon sizni noto‘g‘ri yo‘lga boshlamaydi.

7. Til tinch bo‘lsa, bosh salomat bo‘ladi.

(“Otalar so‘zi”)

Bu mashq ham yuqoridagi tartibda bajarilgandan so‘ng keyingi mashq bajariladi.

Mashq. Quyidagi qo‘shma gap qolipida to‘rtta gap tuzing. Qo‘shma gap turini ayting.



-ki

Mashqni bajarishda o‘quvchilarni ikki guruhga bo‘linadi. Qaysi guruh tez va to‘g‘ri gap tuzsa, ular rag‘batlantirilib baholanadi.

Ikkinchi guruh.

1. Kamtar bo‘l chunki kamtarlik insonni kamolotga boshlaydi.

2. Shuni bilki, seni vatan kutadi.

Birinchi guruh.

1. Yillar o‘tadiki, odamning aql-zakovati to‘ladi.

2. U shunday yig‘ladiki, hamma hayron qoldi.

Mashqni ikkinchi guruh birinchi bo‘lib bajarganligi uchun ularni baholaymiz.

Birinchi guruhga esa qo‘shimcha tarzda savollar beriladi. O‘quvchilar javobidan qoniqish hosil qilgach, ularning bilim darajalari ta‘kidlanadi.

Bugungu o‘tilgan mavzu o‘quvchilarga qay darajada tushunarli bo‘lganligini uyga vazifa qay darajada bajarib kelganlaridan so‘ng bilinadi.

Uyga vazifa. Maqollarning tushirib qoldirilgan qismini tiklang va qo‘shma gapni izohlang, bog‘lovchi vositalarni tushuntiring.

1. Ona yurtning omon bo‘lsa,
2. Ish quroling soz bo‘lsa,
3. Birni kessang,
4. Er boshiga ish tushsa,
5. Qozonga yaqin yursang,
6. Yahshi bilan yursang,

Namuna:

Ona yurtning omon bo‘lsa, rangi ro‘ying somon bo‘lmas.

Birinchi ergash gap ikkinchi bosh gap -sa bog‘lovchi vositasida ikkita gap bir-birga bog‘langan.

3.2 Ergash gapni bosh gapga bog‘lovchi vositalar mavzusini o‘tish.

Ergashgan qo‘shma gaplar mavzusini o‘tish jarayonida turli bog‘lovchi vositalardan foydalaniladi. Bu bog‘lovchi vositalar o‘zining muhim o‘rniga ega.

Topshiriq. Quyidagi qo‘shma gap qolipida gaplar tuzing.

1) Agar ○ → □
-sa

2) □ ← ○
-ki

3) □ ← ○
chunki

4) ○ → □
shuning uchun

Topshiriqni sinfdagi eng faol o‘uvchilarga bajartirtiriladi .Qolgan o‘quvchilar esa kuzatib borishadi.

1. Agar hosil to‘kin bo‘lsa , to‘ylar to‘xtamas .
2. Mening maqsadim shuki , doimo tinchlik bo‘lsin.
3. Biz kitobni sevamiz , chunki u bilim manbaidir.
4. Yozi bilan mahnat qildik shuning uchun mo‘l hosil oldik .

Topshiriq bajarish jarayonida o‘quvchilarning nutqiy salohiyati yanada oshishi

bilan birga bog'lovchilarni yana bir bor eslab olishadi. O'quvchilarning bu haqidagi umumiy bilimlaridan qoniqish hosil qilgach darslikda berilgan nazariy ma'lumot tushuntiriladi.

Ergash gaplar bosh gapga quyidagi vositalar yordamida bog'lanadi.

1) ergashtiruvchi bog'lovchilar. 2) ko'makchili qurilmalar (shuning uchun, shu sababli, shu tufayli va boshqalar); 3) yuklamalar (-ki); 4) nisbiy so'zlar (kim-o'sha, nima-shu, qayer-shu yer va boshqalar); 5) deb so'zi va boshqalar.

O'quvchilarga nazariy ma'lumot tushintirilgach ularning qay darajada anglaganligini tekshirib ko'rib bilimlarnim mustahkamlash maqsadida mashqlar bajartiriladi.

Ko'chiring. Qo'shma gap qisimlarini bog'lovchi vositalarni aniqlang.

O'quvchilarni uch guruhga bo'lib olamiz. Og'zaki ravishda ushbu mashiqni bajaramiz. Har bir guruh darslikda berilgan mashiqni o'z a'zolarim bilan maslahatlashib bajaradi. To'g'ri yozgan guruh g'olib sanaladi hamda hamda tag'dirlanadi. Uch guruh ham belgilangan mashiqni bajargandan so'ng guruh sardorlari javoblarni uch bo'lakka bo'lingan doskaga yozishadi. Javoblar jamoa bo'lib tekshiriladi. Xatolikka yo'l qo'ymagan guruh taqdirlanadi.

1. Shunday yaxshi odamlarimiz borki, ularga hurmat bilan qarash lozim.

(Said Ahmad)

2. Tilagim shuki tog'a ayam bilan ukalarim kishilarga muhtoj bo'lmasin.

(Oybek)

3. Ikkinchi masala ancha jiddiy shuning u maxsus o'rganishni talab qiladi.

(Murod Muhammad Do'st)

Agar shu topshiriqni bajarmasa obro'yi bir pul bo'ladi.

(Olimjon Xoldor)

4. Kimki dushman bilan olishganda ham insonparvarlikni unutmasa u, albatta yengadi. (Xurshid Davron)

5. Shamol qay tarafga essa maysa ham ham o'sha tamonga egiladi. (Xurshid Davron)

6. Mashqni o'quvchilarni uch guruhga bo'lib bajarishdi.

Birinchi guruh.

1. Shunday yaxshi odamlarimiz borki, ularga hurmat bilan qarash lozim.

(Said Ahmad)

Birinchi gaplar o‘zaro -ki bog‘lovchisi orqali bog‘lanib, gapni kuchaytirib ta’kidlab kelmoqda.

2. Tilagim shuki tog‘a ayam bilan ukalarim kishilarga muhtoj bo‘lmasin.

(Oybek.)

Birinchi gap bosh ikkinchi gap ergashgan, -ki bog‘lovchisi orqali bog‘lanib gapni ta’kidlab kuchaytirib kelmoqda.

Ikkinchi guruh.

1. Ikkinchi masala ancha jiddiy shuning uchun u maxsus o‘rganishni talab qiladi.

(Murod Muhammad Do‘st)

Bunda birinchi gap bosh ikkinchi gap ergashgan qo‘shma gap. Shuning uchun bog‘lovchisi orqali bog‘lanib kelmoqda.

2. Agar shu topshiriqni bajarmasa obro‘yi bir pul bo‘ladi.

(Olimjon Xoldor)

Gapimizning birinchisi ergashgan , ikkinchisi bosh gap –sa bog‘lovchisi orqali bog‘langan.

Uchinchi guruh

1. Kimkim dushmani bilan olishganda ham insonparvarlikni unutmasa, u, albatta yengadi.

(Xurshid Davron)

Gapning birinchisi ergashgan gap –sa bog‘lovchisi orqali bog‘lanmoqda.

2. Shamol qay tarafga esa maysa ham o‘sha tomonga egiladi.

(Xurshid Davron)

Birinchi gap ergashgan gap, ikkinchi gap bosh gap, -sa bog‘lovchisi orqali bog‘lanmoqda.

Mashqni bajarish davomida o'quvchilar nafaqat jamoa bo'lib, balki yakka mustaqil tanqidiy fikrlashga mavjud bilimidan foydalanib jamoaga o'z fikirini bildirishga ta'sir etishga hamda fikirini qisqa va londa ifodalashga o'rgatadi.

Keyingi mashq Matnni o'qing Qo'shma gaplarni ko'chiring. Qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vositalarini aniqlang. Mashq har bir o'quvchi tomonidan o'zining daftariga mustaqil tarzda bajariladi.

Ongli kishi deyilsa onga ega, aql idrokli odam tushuniladi. Ongli hayot desak, bir maqsadga yo'naltirilgan turmush ifodalanadi.

Mashqni bajarishda o'quvchilar individual faoliyat olib borib yangi mavzuni o'zlashtirishga ongli ravishda yondashish mavzuni xotirada uzoq vaqt saqlab qolish maqsadida qo'laniladi. Yangi mavzuni yanada mustahkamlash maqsadida darslikdan berilgan savollarni test asosida o'quvchilarga tarqatib chiqamiz.

Savvollar

1. Ergash gap bosh gapga qanday bog'lovchi vositalari yordamida bog'langan?
2. –ki bog'lovchi vositasi qaysi gapning qaysi bo'lagi tarkibida qo'llanadi?
3. Go'yo, xuddi, chunki, bog'lovchi vositalari qaysi gap tarkibida qo'llanadi va qanday tinish belgisi bilan yoziladi?
4. Nisbiy so'zlar deganda nimani tushunasiz? Nisbiy so'zlar yordamida bog'langan ergash gap qo'shma gaplarga misollar keltiring.

Savollarga o'quvchilar tarafidan javob olingandan so'ng uyga vazifa beriladi.

Gaplarni ko'chiring. Qo'shma gapqismlarini bog'lovchi vositalarni aniqlang.

3.3 Ergashtiruvchi bog'lovchili ergashgan qo'shma gaplar mavzusini o'tish.

Ergashtiruvchi bog'lovchili ergashgan qo'shma gaplar bir-biri bilan ergashtiruvchi bog'lovchilar orqali bog'lanadi.

Topshiriq. Qismlari o'zaro agar, chunki, toki, go'yo bog'lovchilari yordamida bog'langan to'rtta qo'shma gap tuzing, topshiriq o'quvchilar tarafidan umumiy tarzda bajariladi o'qigan badiiy asarlaridan olinadi.

1. Agar Murodjonning yoniga yuborishadigan bo'lsa, sira o'ylanib o'tirmasdim.

(Odil Yoqubov)

2. Gulsum opa hammadan ko'ra bu odamning mana shunday kishi ko'nglini ovlamoqchi bo'lishidan qo'rqardi, chunki buning tagida hamisha bir yomon gap, bir sovuq xabar yotardi. (Odil Yoqubov)

3. Yomonlarning jazosini berish kerak, toki ular yaxshilarning boshiga yomon kunlarni solmasin.

4. Hovli jim-jit go'yo hech kim yo'qdek.

Bu topshiriq orqali o'quvchilar badiiy asarlarni qanday o'qiganliklarini bilib oldik. Ular topshiriqni bajarishda hech qanday qiyinchilikka uchramadi. O'quvchilarning bu haqidagi umumiy bilimlaridan qoniqish hosil qilgach darslikda berilgan nazariy ma'lumotni tushuntiriladi. Bosh gapda ifodalangan mazmunning sababi, maqsadi, sharti yoki qiyosini bildirgan ergash gaplar bosh gapga sabab (chunki, negaki), maqsad (toki) shart (agar, agarda, nasharti mabodo), qiyoslash-chog'ishtiruv (go'yo, go'yoiki, xuddi) ergashtiruvchi bog'lovchilari yordamida bog'lanadi. Sabab, maqsad, qiyoslash-chog'ishtiruv bog'lovchilari ergash gap boshida qo'llanadi va ergash gap bosh gapdan so'ng keladi. Bunday vaqtda yozuvda ergash gap bosh gapdan vergul bilan ajratiladi.

Shart bog'lovchilari gap boshida keladi. Ergash gap kesimi shart maylidagi fe'llar bilan ifodalanadi. Bunday ergash gaplar bosh gapdan oldin keladi. Ko'pincha shart bog'lovchilari qo'llanmasa ham shart mayli shakli qo'shma gap qismlarini bog'layveradi.

O'quvchilarga nazariy ma'lumot tushuntirilgach ularning qay darajada anglaganligini tekshirib ko'rib bilimlarni yanada mustahkamlash uchun mashq bajartiriladi.

Mashq. Bosh gapga agar bog'lovchisini basharti mabodo bog'lovchisiga alamashtirib ko'ring. Ushbu mashqni bajarishda o'quvchilarimizdan e'tibor, chaqqonlik, zukkolik talab etiladi. Mashqni bajarishda biz daftar va doskadan unumli foydalanamiz. Gaplarni topshiriq asosida eng birinchi chiroyli va xatosiz bajargan o'quvchilar rag'batlantiriladi. Doskaga galma-galdan chiqib gaplar

tuziladi va oʻrni almashtiriladi. Bogʻlovchilarning oʻrni almashganda qanday hodisa vujudga kelganligi tushuntiriladi.

Namuna: Agar boshingga qilich kelsa ham, toʻgʻri gapir – Basharti boshingga qilich kelsa ham, toʻgʻri gapir – Mabodo boshinga qilich kelsa ham toʻgʻri gapir.

Mashq shu tartibda bajarilgandan soʻng oʻquvchilardan qanday oʻzgarish sodir boʻlganligi soʻraladi. Oʻquvchilar har ikkala bogʻlovchini agar bogʻlovchisi oʻrnida qoʻllasa ham hech qanday maʼno oʻzgarishi yuz bermasligini aytganlaridan soʻng, mashqni bajarishda faol darajada qatnashgan oʻquvchilarga ziyrakliklari uchun rahmat aytib aʼlo baholar bilan taqdirlanadi.

Yuqoridagi mashq bajarilgandan soʻng bilimlarini yanada mustahkamlash maqsadida mashq bajariladi. Gaplarni oʻqing, ergashtiruvchi bogʻlovchilar yordamida bogʻlangan ergashgan qoʻshma gaplarni aniqlang va ularga izoh bering. Mashqni orqa partada oʻtirgan oʻquvchilar ogʻzaki oʻqishi soʻraladi chunki hamma oʻquvchilarning diqqati bir joyga jamlangan boʻlishi kerak. Mashq oʻqilgandan soʻng gap ichidan ergashtiruvchi bogʻlovchilar yordamida bogʻlangan ergashgan qoʻshma gaplarni aniqlashadi.

Kishida odob boʻlsa, ilim ham boʻlishi lozim. Odob shunday tojki, u aqlli, farosatli odamlar boshini bezaydi. Odobli odam tabibga oʻxshaydi, chunki u bilan suhbatlashish koʻngildagi gʻamni quvadi. Ilm bir daraxt, odob esa uning mevasidir. Odob ulugʻlik va yuksaklik qasrining narvonidir.

Shuning uchun u orqali barcha maqsad va manzillarga yetish mumkin. Qaysi yerda ilm – u maʼrifat kuchli boʻlsa, oʻsha yer baxt maskanidir.

(“Sharq hikmatlari” dan)

Mashqni bajarish jarayonida oʻquvchilar faolligini taʼminlab, erkin fikr yuritishga oʻrgatiladi. Oʻquvchilarni mustaqil, fikrlash, muayyan mavzuni muhokama qilishga, ijodkorlikka yetaklaydi. Ular oʻz javoblari toʻgʻriligini doskaga yozilgandan soʻng anglaydi. Shuni ham aytish kerakki maktab darsliklarida bunday topshiriqlarning berilishi, oʻquvchilarni “Sharq hikmatlari” dan baxramand boʻlishga ota-bobolarimiz bizga meros qilib qoldirgan ulkan

xazina, ilm, odob, ahloqning sirlaridan bahramand bo‘lish imkonini beradi. O‘quvchilar bu mashq orqali odobning kaliti ilmda ekanligini anglab yetishdi.

Bugungi mavzu o‘quvchilarga qay darajada tushunarli bo‘lganligini ularga savollar bilan murojaat qilish orqali bilib olamiz. Chunki savol berish ham bir san’atligini o‘qituvchi ham chuqurroq anglashi va o‘quvchilarga ham singdirishi kerak. Jo‘yali savollarda qandaydir tushunib yetilmagan teranlik bo‘lib, o‘quvchilarni izlanishga chorlaydi.

Savollar.

1. Qanday bog‘lovchilarga ergashtiruvchi bog‘lovchilar deyiladi.
2. Qanday gaplarga ergashtiruvchi bog‘lovchili ergashgan qo‘shma gaplar deyiladi.
3. Ergashtiruvchi bog‘lovchili ergashgan qo‘shma gaplarga misollar keltiring.

O‘quvchilardan savollarga javob olingach uyga vazifa beriladi.

Bosh gapga toki bog‘lovchisi yordamida bog‘langan ergash gaplarga uchta misol keltiring. Ergash gap qanday ma’no ifodalashini ayting.

Namuna: Bu masalani sinfda keng muhokama qilamiz, toki boshqa qaytarilmasin.

3.4 Ko‘makchilik qurilmalar yordamida ergashgan qo‘shma gaplar mavzusini o‘tish

Ma’lumki ergashgan qo‘shma gaplar ergashtiruvchi, bog‘lovchilar yordamida o‘zaro birikadi.

Ammo shunday ergashgan qo‘shma gaplar ham mavjudki ergashtiruvchi bog‘lovchilardan boshqa vositalar yordamida ham birikadi. Bunday vositalarga ko‘makchili qurilmalarini kiritamiz.

Mavjud manbalarda shuning uchun, shu sababli, shu tufayli kabi grammatik birliklar ergashtiruvchi bog‘lovchi sifatida qayd etiladi. Keyingi tatqiqotlar bu birliklarning tarkiblaridagi ko‘makchilar sababli ko‘makchili qurilmalar degan nom bilan yuritilmoqda. O‘quvchilarning mavzuga oid topshiriqni bajarish bu atamalarni jarayonida bu atamalarnig izohi o‘qituvchi tomonidan tayyor holda berilmog‘i zarur. Mavzu uchun quyidagi topshiriqlar beriladi.

Topshiriq. Bosh gapga shuning uchun, shu sababli, shu tufayli ko‘makchilik qurilmalar vositasi yordamida bog‘langan ergashgan gaplarga uchta misol yozing.

2. Topshiriq umumiy tarzda o‘quvchilar tomonidan bajariladi. Birinchi va tez bajargan o‘quvchilar baholanadi.

1. Bu yil dalada qattiq ishladik shuning uchun hosil mo‘l bo‘ldi.

2. Ustozimning dars o‘tishi menga juda yoqadi shu sababli uning uslubini o‘rganmoqdaman.

3. Bugun vazifani bajarmadim shu tufayli o‘qituvchimdan gap eshitdim.

Topshiriq bajarilgandan so‘ng o‘quvchilar birma-bir turib yozgan gapini izohlashadi va o‘qishadi. Demak berilgan gaplar shuning uchun, shu sababli, shu tufayli.

Ko‘makchili qurilmalari orqali bog‘lanib kelmoqda uning gapdagi vazifasi beqiyos. Ular gap mazmunini boyitib takidlab tasirchanligini oshirishda xizmat qilib keladi. Dars boshida bunday topshiriqlarning berilishi o‘quvchilarni mavzuga tayorlab mashqlar bajarishga o‘rgatib ularga biror bir tushunchaning paydo bo‘lishiga mavzuni nima haqidaligini aniqlashga sabab bo‘ladi. Darsda befarq bo‘lib o‘tirgan o‘quvchilarni xayoli bir joyga to‘planadi. O‘quvchilarning arfografik va punktuatsiyon savodxonligini taminlash maqsadida yuqoridagi gaplarni tarkibi tahlil qilinadi yani qo‘shma gaplardagi bog‘lovchi vositalarni o‘rni va ularda qo‘llanilgan tinish belgilar vergul izohlanadi.

Topshiriqdan so‘ng darslikda berilgan nazariy ma’lumot o‘quvchilarga tushuntiriladi. Bosh gapda ifodalangan mazmuni sababini bildiruvchi ergash gaplar bosh gapda shuning uchun, shu sababli, shu tufayli singari ko‘makchili qurilmalar vositasida bog‘lanadi. Ular bosh gap tarkibida keladi.

O‘quvchilarga nazariy ma’lumot tushuntirilgach sinov tariqasida bir necha savol beriladi. Qoniqarli javob olingach, ularning bu mavzuni qay darajada o‘zlashtirilganligini aniqlash hamda uni mustahakamlash maqsadida mashq bajartiramiz.

Ko‘chiring. Ergash gapning bosh gapga bog‘lovchi vositalarni aniqlang. Qanday tinish belgisi qo‘yilganini va buning sababini izohlang. Mashqni bajarishda o‘quvchilardan ixtiyoriy to‘rt kishi navbat bilan mashqni bajarishadi.

1. Uning bunday odati yoq edi, shuning uchun yigit hayron bo‘lib, biroz qarab turibdi. (Abdula Qahor)

2. Yozi bilan tinimsiz mehnat qildik, shu sababli mo‘l hosil oldik. (Olimjon Xoldorov)

3. Ammo shu tobda xordiq chiqarishga, fursat yo‘q edi shu bois jiddiy ishga kirishib ketdilar. (O.Yusupov)

4. Saodat ko‘pdan beri ashula aytmagan edi, shuning uchun ham jaranglagan ovozga qo‘shilib ashula aytgisi keldi. (Ibrohim Rahim)

O‘quvchilar mashiqni bajarishdi.

Javoblar quyidagicha.

1. Shuning uchun ko‘makchi orqali bo‘g‘lanib kelmoqda , bog‘lovchidan oldin vergul qo‘yilgan.

2. Shu sababli bog‘lovchisi orqali bog‘langan bog‘lovchidan oldin vergul qo‘yilgan.

3. Shu bois bog‘lovchisi orqali bog‘langan bog‘lovchidan oldin vergul qo‘yilgan.

4. Shuning uchun bog‘lovchisi orqali bog‘langan bog‘lovchidan oldin vergul qo‘yilgan.

O‘quvchilar mashqni to‘g‘ri bajarganliklari uchun baholanadi.

Keyingi mashq. Berilgan gaplardagi shuning uchun, shu sababli, shu tufayli kabi bog‘lovchi vositalar tarkibidagi ko‘rsatish olmoshini chiqarib tashlab, ko‘makchi holida qo‘llang. Ergash gap kesimi tarkibida qanday o‘zgarish bo‘lganligini izohlang. Bu mashqni bajarishda o‘quvchilarimizni dars davomida zerikib qolmasliklari va diqqatlarini darsga tortish maqsadida “3x3“ texnologiyasini qoidalaridan foydalanamiz. Ushbu usul hamkorlikdagi foliyat bo‘lib o‘quvchilarni muammoli savol topshiriq ustida fikrlashga bir nechta javob variantlarini

Shakllantirish va muayyan shaklda ifodalashga yo‘naltiriladi.

O‘quvchilar uch kishilik guruhlariga bo‘linadilar. Ular o‘zlariga berilgan gaplarni ifodali o‘qib ko‘rsatish olmoshlarini chiqarib tashlashlari ko‘makchi xolda qo‘llab gap kesimi tarkibida qanday o‘zgarish sodir bo‘layotganini tushunturadilar. Uchta guruhga 2 tadan gap beriladi.

Birinchi guruh a‘zolariga

1. Maktabimizda sport klubi faoliyat olib bormoqda, shuning uchun klub a‘zolari yaxshi natijalarni qo‘lga kiritishmoqdalar. (“G‘uncha”)
2. Musavvirlikka menda xavas uyg‘ondi, shu sababli uning sirlarini o‘rganishga astoydil bel bog‘ladim. (Said Ahmad)

Ikkinchi guruh a‘zolariga

1. Giyohvandlik insoniyat kushandasi, shu tufayli unga qarshi dunyo axli ommaviy kurash olib bormoqda. (Gazetadan)
2. Beruniy ilm yo‘lidagi hamkorlikni juda qadrlaydi, shuning uchun o‘z davrining taniqli olimlari bilan ilmiy aloqalar o‘rnatgan edi. (Mirkarim Osim)

Uchinchi guruh azolariga

1. O‘qituvchi bolalarni nazmdan xabardor etishni o‘z burchi deb xisoblaydi shu bois “Guliston” va “Bo‘ston” kabi kitoblarni mustaqil mutolaa qilishga ruhsat bergan edi. (A.Qayumov)
 2. Qog‘ozga tushurilmagan ilm unutilib ketadi, shuning uchun bilganlaringni kelgusi avlodlarga yozib qoldirishga xarakat qil. (“Otalar So‘zi”)
- Mashqni o‘quvchilar quyidagi namuna asosida bajarishgandan so‘ng g‘olib guruhlar aniqlanadi, va baholanadi.

Namuna: Maktabimizda sport kulubi yaxshi foliyat olib bormoqda, shunig uchun kulubimiz a‘zolari turli musoboqalarda yaxshi natijalarni qo‘lga kiritmoqdalar- Maktabimizda sport kulubi yaxshi foliyat olib borayotganligi uchun klub a‘zolari yaxshi natijalarni qo‘lga kiritmoqdalar. Demak, bundan bosh gap tarkibidagi shu ko‘rsatish olmoshi olib tashlangandan so‘ng uchun ko‘makchi ergashgan qo‘shma gap tarkibiga o‘tib qoladi.

G'olib guruh baholangandan so'ng qolgan guruhlar norozi bo'lmashliklari uchun ularga qo'shimcha tarzda o'qituvchi tomonidan savollar beriladi.

Savollar.

1. Qanday ergash gaplar bosh gapga ko'makchili qurilmalar yordamida bog'lanadi?

2. Ko'makchili qurilmalar ergashgan gaplarning qaysi qismida qo'llaniladi?

Qolgan ikki guruh a'zolari savolga javob berganlaridan so'ng ular ham baholanib uyga vazifa beriladi .

Uyga vazifa . Matn tuzing . Undan bog'lovchilardan foydalaning.

3.5 Ergashgan qo'shma gaplarning sodda gap bilan ma'nodoshligi mavzusini o'tish.

So'zlar ma'nodosh qo'llanilishi nutqlar rang barangligi jozibadorligi ta'sirchanligini hosil qiladi. Ma'nodoshlik faqatgina so'z (leksema) lar orasida bo'lmashdan balki gaplar vositasida bo'ladi. Ayniqsa, bunday ma'nodoshlar qo'shma gaplar bilan sodda gaplar oralig'ida mavjud bo'ladi. Gapdagi bunday xususiyatni o'quvchilarga tushuntirish birinchidan ergashgan qo'shma gaplar haqidagi tushunchalarni mustahkamlasa, ikkinchidan o'quvchilar nutqining shakllanishi va taraqqiyotida asosiy ro'l o'ynaydi.

Topshiriq. Berilgan qo'shma gaplarning bosh gaplari tarkibidagi ko'rsatish olmoshlarini toping. Topshiriq darsda faol qatnashadigan o'quvchilar tarafidan o'qiladi. Qolganlar diqqat bilan tinglab gapdagi ko'rsatish olmoshlarini topishadi.

1. Shuni sezdimki, oila a'zolari bir-biri bilan juda ittifoq ekan.

2. Kim oldin musht ko'tarsa, u ojiz bo'ladi.

Demak, birinchi gapda shu ko'rsatish olmoshi, ikkinchi gapda u ko'rsatish olmoshi ishtirok etayapti. O'quvchilar topshiriqni bajarish bilan birga olmosh mavzusini ham yodga olishadi.

2-topshiriq. Ergash gapni boshqa gap tarkibidagi ko'rsatish olmoshi o'rniga

qo‘yib, qo‘shma gapni sodda gapga aylantiring.

1. Oila a‘zolari bir-biri bilan ittifoqligini sezdim.
2. Oldin musht ko‘targan ojiz bo‘ladi.

Topshiriq shu tartibda bajarilgandan so‘ng na‘zariy ma‘lumot tushuntiriladi.

Endi darslikda berilgan nazaruy ma‘lumotlar tushuntiriladi.

Tarkibida ko‘rsatish olmoshi mavjud bo‘lgan ergashgan qo‘shma gaplar tegishli sodda gaplar bilan ma‘nodosh bo‘la oladi . Ergash gapni bosh gap tarkibida tegishli ko‘rsatish olmoshi bilan ifodalangan gap bo‘lagi o‘rniga qo‘yish orqali sodda gapga aylantirish mumkin.

Nazariy ma‘lumot tushuntirilgach o‘quvchilar mavzuni qay darajada tushunganligini tekshirib ko‘rish maqsadida mashqlar bajariladi.

Mashq. Ko‘chiring. Ergash gapni bosh gap tarkibidagi ko‘rsatish olmoshi o‘rniga qo‘yib qo‘shma gapni sodda gapga aylantiring . Mashq musoboqa tarda bajariladi . Birinchi bajargan uchta o‘quvchi doskaga chiqib yozishadi va o‘zgarishni tushuntiradi.

1. Siz kimga ishonch bildirsangiz , men uni sherik qilib olishim mumkin .

(R.Fayziy)

- Siz kimga ishonch bildirsangiz men sherik qilib olishim mumkin .

2. Shunga xursandmizki bolalar o‘z yo‘lini topib ketishadi. (Y.Sulaymon)

-Bolalar o‘z yo‘lini topib ketishganidan xursandmiz.

3. Kim ko‘p bilsa, u kam gap bo‘ladi. (Shuhrat)

-Ko‘p bilgan, kam gap bo‘ladi.

4. Tilagimiz shuki, hammangiz el xizmatiga kamarbasta farzadlar bo‘linglar .

(Qamchibek Kenja)

-Tilagimiz hammangiz el xizmatiga kamarbasta farzadlar bo‘linglar.

Mashq to‘g‘ri va tez bajarilganligi uchun doskada bajargan o‘quvchilar a‘lo baho bilan baholanadi.

Bu mashq orqali o‘quvchilar ergash gapni sodda gapga aylantirish yo‘llarini bilib olishdi. Keyingi mashq guruh bo‘lib o‘tkaziladi.

Mashq “Zukkolar” o‘yini, ikki guruhga bo‘lining.

“Donolar“guruhi ko‘rsatish olmoshi ishtirok etgan qo‘shma gaplar topsin.
“Zukkolar” guruhi bu gaplarni sodda gapga aylantirsin. Qaysi guruh to‘xtab qolsa ,
yutqazgan hisoblanadi .

Birinchi guruh Zukkolar .

Agar shu ko‘rganlarini hikoya qilib bersa ular ishonmasliklari mumkin .

Ikkinchi guruh Donolar.

Ko‘rganlarini hikoya qilsa ishonmasliklari mumkin.

Birinchi guruh Zukkolar .

Shuni bilingki dunyoda tinchlikdan ulug‘roq ne‘mat yo‘q .

Ikkinchi guruh Donolar .

Tinchlikdan ulug‘roq ne‘mat yo‘qligini biling.

Birinchi guruh Zukkolar .

Shunga ishonch hosil qildimki, ko‘p uxlagan oz yashaydi.

Ikkinchi guruh Donolar .

Ko‘p uxlagan oz yashashiga ishonch hosil qildim.

Birinchi guruh Zukkolar .

Kimki tinch yashashni istasa pastkash odam bilan hech qachon do‘stlashmaydi.

Ikkinchi guruh Donolar

.....

Demak, o‘yin shu yerda to‘xtatiladi , berilgan vaqt ichida ikkinchi guruh
“Donolar”

Guruhi sodda gapga aylantiraolmadi.

Shuning uchun birinchi guruh “Zukkolar”ni “ g‘olib deb e‘lon qilamiz .

Har bir bajarilgan mashqdan keyin savollar bilan murojat qilinsa ularning
xotiralari mustahkamlanadi va eslab qolish xususiyati ortadi .


Savollar.

- 1.Qanday ergashgan qo‘shma gaplar sodda gap bilan manodosh bo‘lishi mumkin .
- 2.Ergash gapli qo‘shma gap qanday qilib sodda gapga aylantiradi ?
3. Bir manoni ifodalagan sodda va qo‘shma gaplar o‘rtasida qanday uslubiy farq mavjudligini izohlang.

Uyga vazifa. Tarkibida ko'rsatish olmoshi ishtirok etgan to'rtta qo'shma gap tuzing. Ko'rsatish olmoshining qanday gap bo'lagi vazifasida kelayotganini aniqlang.

3.6 Kesim ergash gapli qo'shma gaplar mavzusini o'tish

Ergashgan qo'shma gaplarning bosh gap bilan ergash gaplarning o'zaro munosabatiga ko'ra bosh gapdagi ayrim so'z (bo'lak)larning ergash gap tomonidan izohlanishi, ta'kidlanishi alohida ajratilishi nuqtai-nazaridan bir necha guruhlariga ajratiladi. Shulardan biri kesim ergash gapli qo'shma gaplardir. Kesim ergash gap haqida o'quvchilarning qay darajada bilim va ko'nikmalarini tekshirib ko'rish maqsadida darslikdagi topshiriqlar bajartiriladi.

Topshiriq.  qolipi asosida qo'shma gap tuzing.

Topshiriq sinf o'quvchilari tomonidan umumiy tarzda daftarlariga bajariladi.

1. Tilagim shuki, doimo tinchlik bo'lsin.
2. Bizda odat shuki, uyga kelgan mehmonni ezozlaymiz.
3. Gapimning xulosasi shuki, elektrostansiya quramiz.

O'quvchilar topshiriq asosida qo'shma gap tuzishdi. Bu gaplarda **shuki** bog'lovchisining o'rni katta. Chunki u har bir gapni to'ldirib izohlab kelmoqda.

2-topshiriq. Bosh gap tarkibidagi ko'rsatish olmoshining qanday gap bo'lagi vazifasida kelayotganini aniqlang. Ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositani toping. Bunda birinchi gapda shuki ko'rsatish olmoshi kesim vazifasida kelayapti.

Ikkinchi gapda ham shuki ko'rsatish olmoshi kesim vazifasida kelayapti. Bu gaplarda ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositalar –ki yuklamasi orqali bog'lanmoqda.

Topshiriqdan so'ng o'quvchilarga na'zariy ma'lumot tushuntiriladi.

Bosh gap tarkibidagi kesim vazifasida qo'llangan ko'rsatish olmoshining ma'nosini izohlab keluvchi ergash gapga kesim ergash gap deyiladi. Kesim ergash gap bosh gapga –ki yuklamasi yordamida bog'lanadi.

O'quvchilar mavzuni qay darajada tushunganliklarini tekshirib ko'rish maqsadida mashqlardan foydalaniladi.

Mashq. Ko‘chiring. Bosh va ergash gaplarni aniqlang. Bosh gap kesimining ifodalanishini tushuntiring. O‘quvchilarni ikki guruhga bo‘lib mashq bajartiriladi. Qaysi guruh tez va to‘g‘ri bajarsa o‘sha guruh taqdirlanadi.

Birinchi guruh.

4. Endi sizlarga muborak topshiriq shuki, har biringiz alohida-alohida ketasiz.
(M.Mansurov)

Bunda birinchi bosh gap keyingisi ergash gap. Bosh gap ko‘rsatish olmoshi orqali bog‘langan.

5. Toleyim shuki, jahonda bir guliston tanladim (Hamid.Olimjon)

Birinchi bosh gap keyingisi ergash gap. Bosh gap ko‘rsatish olmoshi orqali bog‘langan.

6. Muhammad Yusuf ijodining o‘ziga xos xususiyati shundaki, u juda oson o‘qiladi, sodda, xalqchil (Ozod Sharofiddinov)

Birinchi bosh gap keyingisi ergash gap. Bosh gap ko‘rsatish olmoshi orqali bog‘langan.

Ikkinchi guruh.

1. Buning natijasi shu bo‘ldiki, To‘laganning qanshariga musht tushdi.

(Abdulla Qahhor)

Birinchi bosh gap keyingisi ergash gap. Bosh gap ko‘rsatish olmoshi orqali bog‘langan.

2. Keragi shuki, anashu miqqiyni ham boqish kerak.(G‘afur G‘ulom)

Birinchi bosh gap keyingisi ergash gap. Bosh gap ko‘rsatish olmoshi orqali bog‘langan.

3. Qizig‘i shundaki, shu ko‘rinishga ovozi muloyim edi.

Birinchi bosh gap keyingisi ergash gap. Bosh gap ko‘rsatish olmoshi orqali bog‘langan.

Ikkala guruh ham topshiriqni bir vaqtda tog‘ri va tez bajarganliklari uchun ular rag‘batlantiriladi. Berilgan oltita gap **shu** ko‘rsatish olmoshi va **-ki** yuklamasi orqali ifodalangan.

Keyingi mashq. “Hikmatlar bo‘stoni” kitobidan olingan bo‘lib o‘quvchilarni anchayin o‘ylashga, izlanishga davat etadi. Mashq har bir o‘quvchi tarafidan alohida o‘zlarining daftarlariga bajariladi. To‘g‘ri va tez bajargan o‘quvchilar boholanadi.

1. Eng yaxshi yo‘l shuki, yaxshi do‘st yor-diyordan ayrilishdan ixtiyor etmaydi.
2. O‘tgan oto-bobolarning xulosasi shuki, shirin so‘z odamlarning qalbini bog‘lovchi zanjirdir.
3. Qisqa gap shuki, odam so‘zi bilan taniladi, ahloqi bilan maqtaladi.
4. Donolarning o‘giti shundayki, so‘zning lazzati uni gapirishda emas, balki eshitishdadir.
5. Xalqning xulosasi shuki, xudbin odam hech qachon elga qoyishmaydi.

“Hikmatlar bo‘stoni” kitobidan

Demak, mashqdagi barcha gaplar **–ki** yuklamasi orqali bog‘lanib kelmoqda. Ergash gap va bosh gapning bog‘lanishi uchun xizmat qilmoqda.

Yangi pedagogik texnologiya asosida darsni tashkil etish qadimgi sharqona tarbiya tamoyillaridan butunlay voz kechish degan gap emas, yangi pedagogik texnologiya g‘arb ta‘lim jarayonining eng ilg‘or tamoyillari bo‘lsada sharqona an‘analar pandnoma-didaktik ruhida tarbiyani kuchaytirishi hamma vaqt milliy tarbiyamizning asosini tashkil etadi. Dars jarayonida qisqa daqiqa to‘xtalish saqlab, shu xildagi pandnomalarni izohlab o‘tish ham katta ahamiyatga egadir.

Uyga vazifa. Vatanni sevishimning boisi shuki, ...

bosh gap ishtirokida bir necha qo‘shma gap tuzing.

Namuna: Vatanni sevishimning boisi shuki, u mening kindik qonim to‘kilgan muqaddas zamindir.

3.7 Ega ergash gapli qo‘shma gap mavzusini o‘tish.

O‘quvchilarning yozma nutqiy jarayoni bevosita qo‘shma gaplar bilan aloqador. Bu mavzuni o‘tishdan maqsadlardan biri ega ergash gapli qo‘shma gaplarni o‘quvchilar nutqida o‘rinli qo‘llay olish malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat. Shu maqsadda mavzuga oid topshiriqlar bajartiriladi.

1-topshiriq. Bosh va ergash gaplarni aniqlang. Topshiriq o'quvchilar tomonidan umumiy tarzda bajariladi. To'g'ri va tez bajargan o'quvchilar baholanadi.

1. Kimki ilm urug'ini sepsa, u ulug'lik mevasini teradi.(Donolar bisotidan)

2. Shu narsa aniqki, tarixini yaxshi bilmagan odam oxir-oqibatda qul sifatida kun kechiradi.(Muhammad Ali)

Demak, birinchi gapimiz ergash gap ikkinchisi bosh gap. Bular bir-biriga –sa bog'lovchisi orqali bog'lanmoqda. Ikkinchi gapimizning birinchisi bosh gap ikkinchisi ergash gap –ki yuklamasi orqali bog'lanib kelmoqda.

2-topshiriq. Bosh gapning egasi vazifasida kelayotgan ko'rsatish olmoshini aniqlang. Ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositani izohlang.

Gapimizdagi birinchi gapda bosh gapning egasi vazifasida u ko'rsatish olmoshi kelayapti. Ikkinchi gapda bosh gap egasi vazifasida shu ko'rsatish olmoshi ishtirok etmoqda. Demak, ularni bosh gapga bog'lovchi vositalar –ki yuklamasi va –sa shart mayli orqali bir-biriga bog'lanmoqda. Topshiriq shu tartibda bajarilgandan so'ng o'quvchilarda na'zariy malumot tushuntiriladi.

Bosh gap tarkibida ega vazifasida qo'llangan ko'rsatish olmoshining ma'nosini izohlab keluvchi ergash gapga ega ergash gap deyiladi. Bunday ergash gap bosh gapga nisbiy so'zlar (kim-o'sha, nima-o'sha kabi) yoki bosh gap kesimi tarkibida qo'llaniluvchi –ki yuklamasi yordamida bog'lanadi.

Gap qismlari nisbiy so'zlar yordamida bog'langanda, ergash gap kesimi shart mayli shaklidagi fe'llar bilan ifodalanadi va ergash gap bosh gapdan oldin keladi.

Gap qismi –ki yordamida bog'langanda esa ega ergash gap bosh gapdan keyin keladi.





Ba'zan bosh gapning egasi vazifasidagi ko'rsatish olmoshi qo'llanmasligi mumkin, ammo uning o'rni bilinib turadi.

O'quvchilardan nazariy ma'lumotni qay darajada o'zlashtirganini so'rab, bilimlari tekshirilib ko'riladi.

Ularning bilimlarini mustahkamlash uchun mashq bajartiriladi.

Mashq. Quyidagi gap qoliplari asosida to'rtta qo'shma gap tuzing. Bosh gap tarkibida ega vazifasida kelayotgan ko'rsatish olmoshining ostiga chizing. Ergash

gapni bosh gapga bog'lovchi vositalarni aniqlang.

1. Kim  → 
sa, u (o'sha)
2. Shunisi  → 
ki,

Shu narsa

Mashqni bajarish uchun o'quvchilarni ikki guruhga bo'linadi. Qaysi biri ko'proq misol topsa, o'sha guruh g'olib bo'lib, rag'batlantiriladi.

Ikkinchi guruh.

1. Kimki yomonlar suhbatidan qochsa, u yaxshilar suhbatiga erishadi.
2. Shunisi qiziqki, u hamisha shunday tarzda yuradi.

Birinchi guruh.

1. Kim ko'p o'qisa, u ko'p biladi.
2. Shunisi qiziqki, tabiat hamisha shu rang ta'siriga tushib qoladi.

Ikkala guruhning bajargan topshirig'i bir-biriga o'xshaganligi uchun ular bir xil tarzda baholanadi.

O'quvchilar bu mashq orqali ergashgan bog'lovchilar yuzasidan keng ma'lumotga

ega bo'lishdi. Mavzuni yanada mustahkamlash uchun qolgan mashqlar ham bajariladi.

Mashq. Ega ergash gapli qo'shma gaplarni topib ko'chiring. Ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositalarni aniqlang. Topshiriqni o'quvchilar alohida o'zlarining daftarlariga bajaradi. Mashqni tog'ri bajargan o'quvchilar rag'batlantirilib baholanadi.

1. O'sha yetti ipni kim yoyib yuborsa, u olamni anvoyi gullarga burkaydiganday.
2. Odam bolasi borki u shu ranglardan birini o'ziniki qilib oladi.
3. Shu narsa ayonki, tabiat ham shu rang ta'siriga tushub qoladi.
4. Shunisi qiziqarli ediki, ko'm-ko'k bahor osmoni bolalar uchirgan anvoyi rang varraklarga to'lib ketadi.

Said Ahmadning qalamiga mansub ushbu parchada to'rtta ergash gapli qo'shma gap borligini o'quvchilar aniqlashdi.

Gaplar asosan –sa –ki yuklamalari orqali shu o'sha ko'rsatish olmoshlari orqali bog'langan. Shuni alohida aytish kerakki mashqlarda yozuvchilarning asarlaridan berilishi o'quvchilarda darsga bo'lgan qiziqishning ortishiga sabab bo'ladi. Parcha qiziqarli odamlar hayotidan olinganligi uchun o'quvchilar mashqni qiziqish bilan bajarishadi va uning g'oyasi nima haqida ekanligini anglab yetadi. Bordiyu voqea rivoji o'quvchilarga to'liq tushunarli bo'lmay qolsa, u parcha olingan asarni o'qishga chorlaydi. Bu bir tomondan o'quvchilarda grammatik ma'lumotni takrorlashtirsa ikkinchi tomondan kitob o'qishga bo'lgan qiziqishni orttiradi. Bajarilgan mashqlardan so'ng o'quvchilarga mantiqiy savollar berish mavzuni takrorlash bilan birgalikda ularning eslab qolish xususiyatlarini oshiradi.

Savollar.

3. Qanday gaplar ega ergash gaplar sanaladi.
2. Ega ergash gaplar bosh gapga qanday vositalar yordamida bog'lanadi.
3. Yozuvda ergash gap bosh gapdan qanday tinish belgisi bilan ajratiladi.
4. Ega ergash gapli qo'shma gaplarning qolipini chizing.

O'quvchilardan savollarga javob olingandan so'ng uyga vazifa berib dars yakunlanadi.

Uyga vazifa.

Gaplarni ko'chiring. Bosh gapning egasi vazifasidagi ko'rsatish olmoshini aniqlang.

Xulosa.

“Teng va ergashtiruvchi bog‘lovchili qo‘shma gaplarni qiyoslab o‘rganish mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi yuzasidan quyidagi xulosalar berildi.

1. “Ta‘lim to‘g‘risida” gi Qonunning joriy qilinishi bir qator fanlarning xususan o‘zbek tilini yanada chuqurroq o‘rganishni talab qilmoqda. Ana shuning natijasida o‘rta maktabda ham ona tili o‘qitish tubdan o‘zgardi. Maktabda ona tili darslari o‘quvchilarning yozma nutq saviyasini ko‘tarishda adabiy til normalarini puxta egallashda, savodxonligini oshirishda muhim ro‘l o‘ynaydi.

O‘rta maktab programmasida teng va ergashtiruvchi bog‘lovchili qo‘shma gaplarga ajratilgan dars soatlari 16 soatni tashkil qiladi. Ushbu malakaviy bitiruv ishi metodik xarakterda bo‘lgani uchun dars jarayonida qo‘llash mumkin bo‘lgan qator tavsiyalar ishlab chiqildi. Tavsiyalar asosida teng va ergashtiruvchi bog‘lovchilar qo‘shma gaplarni o‘tish uchun dars jarayonida foydalanish zarur bo‘lgan fikr-mulohazalar keltirildi.

2. Ushbu malakaviy bitiruv ishida qo‘shma gaplarning turlari teng va ergashtiruvchi bog‘lovchilar orqali bog‘lanishi, bog‘lovchilar haqida batafsil to‘xtalib o‘tildi. Bundan tashqari qo‘shma gaplar mavzusini o‘tishda bir qator metodlar va grammatik o‘yinlar tavsiya qilindi.

3. Shuningdek, har bir mavzuni o‘rganish va o‘qitishda DTS talablariga rioya qilindi. Dastur, darslik va metodik qo‘llanmalarga tayanish har bir dars samaradorligiga ijobiy ta‘sir qilish takidlandi.

4. Dars jarayonida faqat mavzu yuzasidan bilim berish bilan cheklanmasdan o‘quvchilar og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish fikr doirasini kengaytirish uchun grammatik topshiriqlar tavsiya qilindi. Bu o‘quvchilarning zehni o‘tkir bo‘lishini ta‘minlaydi.

5. Bitiruv malakaviy ishida teng va ergashtiruvchi bog‘lovchili qo‘shma gaplarni o‘tishda ko‘rgazmali qurollar, kartochkalardan foydalanib o‘tish usullari tavsiya qilindi. Bu usullardan foydalanish o‘quvchilarda mavzuni yengil va oson o‘zlashtirish imkoniyatini berdi.

6. Dars qiziqarli va mazmunli o'tishi, darsda o'quvchilar faolligini oshirish uchun, shu jumladan mavzuni to'liq tushunishlari uchun o'quvchilar o'rtasida o'takaziladigan "Aqliy hujum", "Zukkolar bellashuvi", "3x3", "6x6x6", "Kim ko'p topadi" kabi o'yin topshiriqlar qo'llandiki ushbu o'yinlar mavzuga mos tarzda tashkil etilsa, dars samaradorligini oshiradi.

7. Teng va ergashtiruvchi bog'lovchili qo'shma gaplar mavzuni o'tishda bir qancha ko'rgazmali qurollar kartochkalar va boshqa usullar tavsiya qilindi.

Shu bilan birgalikda mavzuni tushuntirishda ko'rgazmali qurollardan mashqlarni bajarish jarayonida turli guruhli o'yin-topshiriqlardan foydalanish usullari to'g'risida fikr yuritildi.

8. BMI da tavsiya qilingan dars o'tish metodlari, dars jarayonida foydalanish mumkin bo'lgan ko'rgazmali vositalar tavsiya qilingan o'yin-topshiriqlar shubhasiz dars samaradorligini o'shishga xizmat qiladi degan umiddamiz.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A “O‘zbekiston buyuk kelajak sari” Toshkent. “O‘zbekiston” 1998 yil.
2. Karimov I.A “O‘zbekiston XII asrga intilmoqda“. Toshkent. “O‘zbekiston” 1999 yil.
3. Karimov I.A “Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori”. Toshkent. “Sharq” 1997 yil.
4. Ta’lim to‘g‘risidagi qonun. Ma’rifat. 1998 yil.
5. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Toshkent.”Sharq” 2010.
6. Umumiy o‘rta ta’limning “Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi” Toshkent. “Sharq” 1999 yil 1-maxsus son.
7. Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Toshkent. 2010 yil.
8. Almamatov T. Yadgarov Q. Almamatova Sh. O‘zbek tilini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Toshkent. 2013 yil.
9. Jumaxo‘jayev A. “Istiqlol va ona tilimiz”. Toshkent. “Sharq” 1998 yil
10. G‘ulomov A. Asqarova M. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” (sintaksis).
11. Ўзбек тили грамматикаси. 1976 йил 2-том.
12. Maxmudov N. Nurmonov A. Sobirov A. Ona tili (darslik) Toshkent “Tasvir nashriyot uyi” 2-nashr 2010 yil.
13. Махмудов М. Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси (синтаксис). Тошкент. 1996 йил.
14. Mahmudov N. “Tilimizning tillo sandig‘i” Toshkent. 2012 yil.
15. Нематов Н. Расулов Р. Ўзбек тилининг систем лексикологияси асослари. Тошкент, 1998 йил.
16. Нурматов А ва бошқалар Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. Тошкент 1992 йил.
17. Сайфуллаев Р. «Ҳозирги ўзбек адабий тилида қўшма гапларнинг формал- функционал тадқиқи». Тошкент. 1996 йил.

18. Ўзбек мактабларида она тили ўқитиш концепсияси. Тил ва адабиёт таълим журнали. 1994 йил 1-2 сони.
19. Ғуломов А. Она тили ўқитиш принциплари ва методлари. Тошкент. 1992 йил.
20. Ғуломов А. Нематов Н. Она тили таълими мазмуни. Тошкент. 1995 йил.

MUNDARIJA

KIRISH	3
I. bob. Sodda va qo‘shma gaplar qiyosi orqali qo‘shma gaplar haqida tushuncha berish	5
1.1 Qo‘shma gap qismlari va ularni bog‘lovchi vositalarini o‘tish orqali o‘quvchilarga qo‘shma gaplar haqida tushuncha berish.....	10
1.2 Qo‘shma gaplar tasnifi mavzusini o‘tish usullari.....	15
II. bob. Teng bog‘lovchili qo‘shma gaplarni o‘tish	19
2.1 Biriktiruv bog‘lovchisi yordamida bog‘langan qo‘shma gaplarni o‘tish.....	24
2.2 Zidlov bog‘lovchilari yordamida bog‘langan qo‘shma gaplarni o‘tish.....	26
2.3 Ayiruv bog‘lovchilari yordamida bog‘langan qo‘shma gaplarni o‘tish.....	29
2.4 Bo‘lsa, esa so‘zlari yordamida bog‘langan qo‘shma gaplarni o‘tish.....	32
III. bob. Ergashtiruvchi bog‘lovchili qo‘shma gaplarni o‘tish va ularni teng bog‘lovchili qo‘shma gaplarga qiyoslash	35
3.1 Bosh va ergash gap mavzusini o‘tish.....	39
3.2 Ergash gapni bosh gapga bog‘lovchi vositalar mavzusini o‘tish.....	42
3.3 Ergashtiruvchi bog‘lovchili ergashgan qo‘shma gaplar mavzusini o‘tish.....	45
3.4 Ko‘makchili qurilmalar yordamida ergashgan qo‘shma gaplar mavzusini o‘tish.....	48
3.5 Ergashgan qo‘shma gaplarning sodda gap bilan ma‘nodoshligi mavzusini o‘tish.....	52
3.6 Kesim ergash gapli qo‘shma gaplar mavzusini o‘tish.....	55
3.7 Ega ergash gapli qo‘shma gaplar mavzusini o‘tish.....	57
Xulosa	
Adabiyotlar ro‘yxati	66

**O‘zbek tili va adabiyoti faultetining bitiruvchisi Abdug‘aniyeva Muniraning
“Teng va ergashtiruvchi bog‘lovchili qo‘shma gaplarni qiyoslab o‘rganish”
mavzusidagi BMI ga ilmiy rahbarining**

Xulosasi

Morfologiyada so‘zlar, xususan bog‘lovchilar grammatik ma’no anglatishiga ko‘ra farqlanib ikkiga: teng va ergashtiruvchilarga ajratiladi. Bu o‘rinda ularning sof sintaktik vazifalari nazarda tutiladi. Grammatik vazifa bajaruvchi so‘zlar bevosita nutqiy jarayon bilan aloqador. Teng va ergashtiruvchi bog‘lovchilarning nutqdagi o‘rni va ularning funksional qo‘llanilishini tadqiqot obekti sifatida o‘rganish ham ilmiy, ham amaliy ahamiyatga ega. Bu o‘z o‘rnida mavzuning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Bitiruv malakaviy ishida teng bog‘lovchili qo‘shma gaplar va ergashtiruvchi bog‘lovchili qo‘shma gaplarning umumta’lim maktablarida o‘tilishi alohida-alohida tadqiq qilingan. Bunday bog‘lovchili qo‘shma gaplarni o‘quvchilar ongiga singdirish yo‘llari tavsiya qilingan, ta’limning grammatik o‘yinlardan foydalanish yo‘llari ko‘rsatilgan.

Bitiruv malakaviy ishining asosini teng va ergashtiruvchi bog‘lovchilarni qiyoslab o‘rganish tashkil qiladi. Bu o‘rinda teng va ergashtiruvchi bog‘lovchili qo‘shma gaplar o‘zaro qiyosiy o‘rganishdan tashqari qo‘shma gaplar, sodda gaplar bilan ham qiyoslab tadqiq qilingan: ko‘makchili qurilmalar yordamida birikkan qo‘shma gaplarda faqat ko‘makchilar bilan biriktirish orqali gapning mazmun hamda qurilish jihatdan qanday o‘zgarishlarga duch kelishi va uni o‘quvchilarga yetkazish masalalari ishlab chiqilgan. Bu o‘rinda ham grammatik o‘yinlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish tavsiya qilingan.

O‘zbek tili va adabiyotining bitiruvchisi Abdug‘aniyeva Muniraning “Teng va ergashtiruvchi bog‘lovchili qo‘shma gaplarni qiyoslab o‘rganish” mavzusidagi BMI yakunlangan deb hisoblayman va uni DAK oldida yoqlashga tavsiya qilaman.

Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti bitiruvchi bosqich talabasi Abdug‘aniyeva Muniraning “Teng va ergashtiruvchi bog‘lovchili qo‘shma gaplarni qiyoslab o‘rganish” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

TAQRIZ

Talaba Abdug‘aniyeva Munira bitiruv malakaviy ishini tuzilgan reja asosida olib borgan. Rejada ko‘rsatilgan bandlarni yoritishda ko‘plab adabiyotlardan unumli foydalangan. Ishning kirish qismida uning umumiy tavsifi va ishning tarkibiy qismlari yuzasidan ma’lumot berilgan.

Ishning asosi uch bobdan iborat bolib, bunda teng va ergashtiruvchi bog‘lovchili qo‘shma gaplar mavzusini o‘yin-topshiriqlar asosida o‘tish usullari ko‘rsatib berilgan. Shu bilan birga nazariy asosni misollar bilan izohlab, mavzuning asl mohiyatiga to‘xtalgan. Teng va ergashtiruvchi bog‘lovchili qo‘shma gaplar mavzusini o‘yin-topshiriqlar asosida o‘tish juda qiziqarli mustaqil fikrlashga undaydigan o‘yinlar bilan izohlab berilgan o‘yin-topshiriqlar asosidagi dars namunalari aynan keltirilgan shu orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlash ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki va yozma shakllarda tog‘ri, qisqa va aniq, sodda va obrazli uslub jihatdan ravon ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan qator tavsiyalar taklif qilingan.

Turli xildagi dars o‘yinlari noan’anaviy dars ishlanmalari berilganki, bu o‘quvchilarni so‘z boyligi va tafakkurini oshirishda teng va ergashtiruvchi bog‘lovchili qo‘shma gaplarning o‘rni beqiyos ekanligini ko‘rsatadi. Ishda bu yutuqlar barobarida ba’zi mulohaza talab qilinadigan joylari ham yo‘q emas. O‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishga qaratilgan nazariy ma’lumotlarni berishda biroz ilmiylikka yo‘l qo‘yilgan, ba’zi o‘rinlar kengayib ketgan. Lekin ishda ilgari surilgan fikrlar, noan’anaviy dars ishlanmalari, o‘yin-topshiriqlar bugungi kun uchun dolzarbdir.

Umuman olganda Abdug‘aniyeva Muniraning “Teng va ergashtiruvchi bog‘lovchili qo‘shma gaplarni qiyoslab o‘rganish” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi tugallangan deb hisoblayman. DTS talablariga to‘liq javob beradi. Uni yuqori saviyada yozilgan ishlar sifatida baholashni YaDA hay’ati a’zolaridan so‘rayman.